

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
MUQIMIY NOMIDAGI  
QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
MAGISTRATURA BO‘LIMI**

**Qo‘lyozma huquqida**

**UDK:**

**MAMAJONOVA UMIDAXON ULUG‘BEK QIZI**

**“XALQARO MIQYOSDAGI BOSHLANG‘ICH SINIF DARSЛИKLARI”  
(1-sinf o‘qish darsliklari misolida)**

**5A111701 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang‘ich ta‘lim)**

**Magistr akademik darajasini olish uchun taqdim etilgan**

# **D I S S E R T A T S I Y A**

**Ilmiy rahbar: filologiya fanlari nomzodi, dotsent Z.Isaqov**  
“ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2020-yil.  
\_\_\_\_\_ imzo

**Kafedra mudiri: filologiya fanlari nomzodi A.To‘raxo‘jayeva.**  
“Himoyaga tavsiya etildi”  
“ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2020-yil.  
\_\_\_\_\_ imzo

**Magistratura bo‘limi boshlig‘i: falsafa fanlari doktori (PhD) O.O.Bozorov**  
“Himoyaga ruhsat berildi”  
“ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2020-yil  
\_\_\_\_\_ imzo

**QO‘QON – 2 0 2 0**

**Annotatsiya.** Ushbu dissertatsiya ishi boshlang'ich sinf darsliklarining bugungi kundagi holati, ulardagi mavjud yutuq va kamchiliklar hamda yangi avlod darsliklari yaratish bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganishga bag'ishlangan.

**Annotation.** This dissertation is dedicated to learn international skills in writing new generation textbooks, research current situation of primary textbooks and analyze their advantages and disadvantages.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	4
<b>I BOB: BOSHLANG‘ICH SINFLAR DARSLIKLARINI YARATISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI</b> .....	10
1.1. Umumta’lim fanlaridan o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqishga qo‘yiladigan talablar.....	10
1.2. Darslik va uning didaktik xarakteristikalarini .....	18
1.3. Boshlang‘ich sinflar darsliklari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari.....	26
I bob yuzasidan xulosalar.....	31
<b>II BOB: BOSHLANG‘ICH SINFLAR DARSLIKLARINI YARATISH ROSSIYA TAJIRIBASI MISOLIDA</b> .....	33
2.1. Boshlang‘ich sinflar darsliklari yaratishning jahon hamjamiyatida sinalgan konseptual asoslari .....	33
2.2. Rossiya ta’lim tizimida amalda bo‘lgan boshlang‘ich sinflar darsliklarining qiyosiy tahlili.....	43
II bob yuzasidan xulosalar .....	54
<b>III BOB: YANGI AVLOD BOSHLANG‘ICH SINFLAR DARSLIKLARINI YARATISHDA MILLIY VA XALQARO TAJIRIBANI UYG‘UNLASHTIRISH MASALASI</b> .....	56
3.1. Yangi avlod boshlang‘ich sinflar darsliklari yaratish zarurati .....	56
3.2. Muqobil darsliklar yaratish – davr talabi .....	61
3.3. O‘zbekistonda raqamli maktab darsliklarining istiqbollari .....	66
III bob yuzasidan xulosalar .....	71
<b>UMUMIY XULOSALAR</b> .....	72
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:</b> .....	75
<b>ILOVALAR</b> .....	79

## KIRISH

**Mavzuning asoslanishi va dolzarbligi.** XXI asrda jahon miqyosida fan va texnika taraqqiyotining jadallik bilan amalga oshishi har bir sohada bo‘lganidek, ta’lim tizimida ham tub islohotlar o‘tkazilishini talab etmoqda. Farzandlarimizning har tomonlama yetuk inson bo‘lib rivojlanishi ularning ta’lim olishiga bo‘lgan bugungi e’tiborga bog‘liq ekanligini hisobga olsak, bu soha rivoji uchun sarflangan har qanday e’tibor, har qanday vaqt va mablag‘ besamar ketmasligiga yana bir bor amin bo‘lamiz.

Ta’lim sohasini rivojlantirishning hammamizga ma’lum bo‘lgan ikki omili bor. Birinchisi, bu – sifatli kadr, ikkinchisi – sifatli o‘quv materiallari.

Istiqlol yillarida ta’lim tizimiga sifatli kadr tayyorlab berish maqsadida davlatimiz tomonidan bir qancha ishlar amalga oshirildi. Buni uzluksiz ta’lim tizimi mexanizmlarining xatosiz ishlayotganida ham ko‘rishimiz mumkin. Maktabgacha ta’lim muassalaridan tortib, ilmiy izlanish institutlarigacha bo‘lgan tizimlar kesimida har bir bosqichni rivojlantirish, ularni malakali ustoz-murabbiylar bilan ta’minlash, ular faoliyatini munosib baholash va ta’lim sifatini nazorat qilish borasidagi keng ko‘lamli islohotlar shular jumlasidandir.

Shuningdek, ta’lim oluvchilarni sifatli darslik bilan ta’minlash masalasi ham e’tibordan chetda qolgani yo‘q. Ayniqsa, so‘nggi yillarda qabul qilinayotgan ta’lim sohasiga doir hukumat qarorlari<sup>1</sup>ning asosiy qismi darsliklar tizimini yanada takomillashtirish masalasiga bag‘ishlanayotgani bunga yaqqol misoldir. Xususan, mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini oshirish maqsadida ta’lim muassasalarini zamonaviy o‘quv va laboratoriya asboblari, kompyuter texnikasi va o‘quv metodik qo‘llanmalar bilan jihozlash, darsliklarni yaratishga butunlay yangicha yondashish O‘zbekiston

---

<sup>1</sup> Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 6-apreldagi 187-son qarori: O‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalari uchun umumta’lim fanlaridan o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqishga qo‘yiladigan talablar. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 5-apreldagi 281-son qaroriga muvofiq “Umumta’lim maktablari uchun muqobil darsliklarni yaratish va ulardan foydalanish to‘g‘risida” NIZOM. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-martdagi “Noshirlik va matbaa mahsulotlarini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 4640-son qarori.

Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida muhim o'rin egallaydi<sup>2</sup>.

Bugungi kunda maktab darsliklarini takomillashtirish masalasi anglab turganimizdek, har jihatdan eng dolzarb masaladir. So'zimizning isboti sifatida xalqaro miqyosda darsliklarni tadqiq qilish markazlarining darsliklar yuzasidan o'tkazgan tadqiqotlari bo'yicha bergan hisobotlaridagi ayrim mulohazalarni keltirib o'tishimiz mumkin:

*“Show me your educational resources, I will tell you who you are”*<sup>3</sup>.  
(Menga ta'lim resurslaringni ko'rsat, men senga kimligingni aytaman.)

*“It would be easier to develop quality materials than to educate quality teachers”*<sup>4</sup>. (Sifatli o'qituvchi tayyorlashdan ko'ra, sifatli darslik yaratish osonroq!)

*“We cannot change the attitudes and ways of one hundred teachers overnight. However, you can change one million textbooks”*<sup>5</sup>. (Biz yuzta o'qituvchining (ta'lim berish) usullari va (ta'limga) munosabatini birdaniga o'zgartira olmasligimiz mumkin, lekin siz millionlab darsliklarni o'zgartira olasiz!)

Jahon hamjamiyati shunday qilgani uchun, mamlakatimiz ham bu sohani rivojlantirishga harakat qilyapti desak, masalaga bir yoqlama qaragan bo'lib qolamiz. Chunki, mavzuning dolzarbligini keltirib chiqargan asosiy omillar bu – yillar davomida darslik fodaluvchilari tomonidan amaldagi darsliklardan qoniqmaslik bayon etilgan arznomalar-u, sifatsiz darsliklarga to'lib ketgan ta'lim tizimimizning taraqqiyot sari ildam qadam tashlay olmayotganidir.

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. // “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2017. – B.25.

<sup>3</sup> IARTEM (International Association for Research on Textbooks and Educational Media) 1991-2016. 25years developing textbook and educational media research. France, 2019. 9-410.

<sup>4</sup> ARNO REINTS, Iartem board member. Member's word. IARTEM (International Association for Research on Textbooks and Educational Media) 1991-2016. 25years developing textbook and educational media research. France, 2019. 56-410.

<sup>5</sup> O'sha kitob. 21-410.

Bugun darsliklarni isloh qilish masalasi har bir mamlakat oldidagi har narsadan va har qachongidan muhim va amalga oshirilishi kechiktirib bo'lmaydigan eng ustuvor vazifadir.

Bu islohotlarni avvalo, boshlang'ich sinf darsliklaridan boshlash maqsadga muvofiqdir. Zero, ilm-ma'rifat binosi poydevoriga tamal toshi boshlang'ich sinfdan qo'yiladi.

**Tadqiqot obyekti.** O'zbekiston va Rossiya ta'lim tizimida amalda bo'lgan boshlang'ich sinf darsliklari mavzu tadqiqida daliliy material bo'lib xizmat qildi.

**Tadqiqot predmeti.** Yangi avlod boshlang'ich sinf darsliklari yaratishning mazmuni, usullari va bu jarayonga ta'sir etuvchi omillar tadqiqot predmetini tashkil qiladi.

**Tadqiqot maqsadi** O'zbek va chet el darslik yaratish tajribalarini chuqur o'rganib, ularni uyg'unlashtirgan holda, yangi avlod boshlang'ich sinf darsliklari yaratish amaliyotida foydalanish uchun kerakli tavsiyalar ishlab chiqish va bu bilan boshlang'ich sinflarda darslik yaratish tizimini takomillashtirishdan iborat.

Ushbu maqsadlar quyidagi **vazifalar** asosida amalga oshadi:

1. O'zbekistonda darslik yaratish tizimida mavjud bo'lgan me'yoriy hujjatlarini o'rganish.
2. Xalqaro tajribada boshlang'ich sinf darsliklari yaratishning konseptual asoslarini tahlil qilish.
3. Rossiya davlatida amalda bo'lgan boshlang'ich sinf darsliklarini har jihatdan qiyosiy tahlil qilish va tahlildan olingan natijalardan darslik yaratish tizimida o'rinli foydalanish.
4. Yangi avlod boshlang'ich sinf darsliklari yaratish zaruratlarini belgilab olish.
5. O'zbekiston sharoitida muqobil darsliklar va raqamli maktab darsliklari yaratish tizimini tatbiq qilishning nazariy va amaliy asoslarini aniqlash.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

1. Xalqaro tajribada boshlang'ich sinf darsliklari yaratishning asosiy mezonlari va bu bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot materiallari o'rganildi.

2. Bugungi kun boshlang'ich sinf darsliklarida uchrayotgan kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari belgilandi.

3. Rossiya davlatida amalda bo'lgan boshlang'ich sinf darsliklarini har jihatdan qiyosiy tahlil qilindi va tahlildan olingan natijalardan darslik yaratish tizimida o'rinli foydalanish orqali darsliklar sifatini oshirish mumkinligi aniqlandi.

4. Yandi avlod darsliklari yaratishda inobatga olinishi kerak bo'lgan ayrim jihatlar tavsiya sifatida berib o'tildi.

5. O'zbekiston sharoitida muqobil darsliklar va raqamli maktab darsliklari istiqbollari tahlil qilindi.

**Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari.** Yangi avlod boshlang'ich sinf darsliklari yaratish tizimida quyidagi jihatlarga amal qilinsa, darslik yaratish tizimida yuqori samaradorlikka erishish mumkin:

- darsliklarda beriladigan materiallarni sifat va miqdor jihatdan qaytadan ko'rib chiqilsa;

- darsliklarimizda uchraydigan ba'zi "U kim, bu nima?" turkumidagi savollar o'rniga o'quvchilarimizni o'ylashga, fikrlashga undaydigan savol va topshiriqlar ko'proq berilsa;

- darslik yaratishda uning grafikasiga alohida e'tibor berilsa;

- darslikda mazkur fanning boshqa fanlar bilan o'zaro mustahkam aloqasini ta'minlay oladigan integratsion materiallar soni oshirilsa;

- darslik yaratishga ijodiy yondashilsa.

**Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar tahlili.** Boshlang'ich sinf darsliklari, umuman ta'lim tizimida foydalaniladigan darsliklar haqidagi ilmiy izlanishlar jahon miqyosida Susan Richardson, Ommund Carsten Vareberg, Nahúm Misael Tórréz, Chae-Chun Gim, Craig Richardson, Dr. Alan Peacock,

Arno Reints, Giovani José Da Silva, Andy Smart, Staffan Selander, Jesús Rodríguez, Tânia Maria Braga Garcia va Eric Bruillard tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

O‘zbek olimlaridan esa F.Qo‘chqorovanning “Yangi avlod darsliklarida taqdim etiladigan o‘quv materiallarini konsentrizm prinsipi asosida strukturalashtirishning didaktik parametrlari” nomli (PhD) dissertatsiyasi (2018), Sh.E.Hamroyevning “Jadid ma’rifatparvarlarining darsliklaridagi badiiy matnlar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini axloqiy tarbiyalash” nomli tadqiqot ishi (2009), Sh.E.Ne’matovning “Turkistonda darsliklar yaratishning tarixiy yo‘li va ularning didaktik asoslari” nomli nomzodlik ishi, M.E.Inoyatovanning “O‘zbek alifbe darsliklarining tarixiy taraqqiyot bosqichlari va didaktik asoslari” nomli dissertatsiya ishlarida (2006) ushbu mavzular tadqiqiga doir izlanishlar olib borilgan.

Dissertatsiya mavzusiga doir shu va shu kabi bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lsa-da, lekin ularda bevosita darslik yaratishning O‘zbek va jahon modeli masalasi maxsus tadqiq etilmagan.

**Tadqiqotda qo‘llanilgan metodikaning tavsifi.** Tadqiqot jarayonida analiz, sintez, qiyosiy tahlil, muhokama, matematik statistika usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning nazariy ahamiyati boshlang‘ich ta’lim tizimini sifatli o‘quv materiallari bilan ta’minlash maqsadida sohada qilinayotgan keng ko‘lamli islohotlar va darslik yaratish tizimiga qo‘yilgan O‘zbek va xalqaro talablarni o‘rganish orqali yangi avlod boshlang‘ich sinf darsliklari yaratishga doir konseptual yondashuvlar va ustuvor yo‘nalishlarning aniqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati O‘zbek va chet el darslik yaratish tajribasi asosida zamonaviy darslik yaratishda amaliy ko‘mak bera oladigan taklif va tavsiyalarning ishlab chiqilganligi va “Rossiya modeli” misolida darslik yaratuvchi mualliflar uchun ilmiy-metodik tavsiyalarning yaratilganligi

o‘quvchilarga taqdim etiladigan darsliklarning samaradorlik darajasini ta’minlash imkoniyatini beradi.

**Ish tuzilmasining tavsifi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, uning asosiy mazmuni 73 sahifani tashkil etadi.

## I BOB: BOSHLANG‘ICH SINFLAR DARSLIK LARI YARATISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

### 1.1. Umumta’lim fanlaridan o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqishga qo‘yiladigan talablar

*“Biz darslik yaratishga eng ilg‘or  
va eng sharaflı vazifa sifatida  
qarashimiz, yaxshi darslik yaratgan  
odamlarnı boshimizga ko‘tarishimiz  
kerak.”*

*I.A.Karimov*

Umumta’lim fanlaridan o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqishga qo‘yiladigan talablar O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumta’lim maktablari o‘quvchilarini darsliklar bilan ta’minlash tizimini takomillashtirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2006-yil 31-maydagi 362-son, Vazirlar Mahkamasining “2005-2009 yillarda umumta’lim maktablari uchun darsliklar va o‘quv-metodik qo‘llanmalar nashr etish dasturi to‘g‘risida” 2004-yil 22-noyabrdagi 548-son hamda “2009-2013 yillarda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari uchun o‘quv qo‘llanmalarini nashr etish dasturi to‘g‘risida” 2009-yil 20-martdagi 80-son qarorlariga muvofiq, o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari uchun o‘quv-metodik majmualarni ishlab chiqish tartibini belgilaydi.<sup>6</sup>

Mazkur talablarda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**O‘quv-metodik majmua** – darslik, mashq daftari, o‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma, darsliklarning multimediali ilovasidan iborat majmua.

---

<sup>6</sup> Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 6-apreldagi 187-son qarori: O‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalari uchun umumta’lim fanlaridan o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqishga qo‘yiladigan talablar.

**Darslik** – davlat ta’lim standartlariga muvofiq o’quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigiyenik talablarga javob beradigan, o’quv fanining mavzulari to’liq yoritilgan, uning asoslari mukammal o’zlashtirilishiga qaratilgan, o’quv fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta’lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan, nazariy ma’lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan kitob shaklidagi o’quv nashri<sup>7</sup> (1-rasm. Ilovaga qaralsin).

**Mashq daftari** – darslikning tarkibiy qismi hisoblanadigan, davlat ta’lim standartlariga muvofiq o’quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko’nikmalarni mustahkamlash hamda o’quv fanining mavzulariga mos ravishda ishlab chiqilgan, mantiq va tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan (krossvordlar, boshqotirmalar, mantiqiy fikrlashga undovchi topshiriqlar va hokazo) topshiriqlardan iborat bo’lgan didaktik vosita (2-rasm. Ilovaga qaralsin).

**O’qituvchi uchun metodik qo’llanma** – darslikdagi har bir mavzuni samarali o’qitish metodikasi, qo’shimcha sinov topshiriqlari va o’qituvchining darsni qiziqarli tashkil etishiga oid boshqa metodik ko’rsatmalar berilgan, har bir darsning maqsadi, darsda foydalaniladigan vositalar va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg’ulotlar, qo’shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida metodik ko’rsatmalar aniq bayon qilingan kitob shaklidagi o’quv nashri (3-rasm. Ilovaga qaralsin).

Bugungi kunda umumiy o’rta ta’lim maktablarining kutubxona zaxirasida 1-4-sinf o’qituvchilari uchun ilg’or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo’yicha yaratilgan 7 nomdagi metodik qo’llanma va darsliklarning multimedia ilovalari mavjud.

**Darsliklarning multimediali ilovalari** – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o’quv faniga oid materiallarni davlat ta’lim standarti va o’quv dasturiga mos ravishda yorita oladigan, o’quv fanini samarali

---

<sup>7</sup> Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – T.: Sano-standart, 2017. – B.89-90.

o‘zlashtirishga, o‘quvchilarning mustaqil ta‘lim olishiga ko‘maklashuvchi hamda video, ovoz, animatsiya, jadval, matn va lug‘atlarni o‘z ichiga olgan, bilimlarni nazoratdan o‘tkazish va mustahkamlashga yo‘naltirilgan, o‘quv fanining asosiy mazmunini boyitadigan qo‘shimcha materialga ega bo‘lgan yoki shu kabi manbalarga murojaatlarni o‘z ichiga olgan interaktiv elektron axborot-ta‘lim resursi.

O‘quv-metodik majmualar davlat ta‘lim standartlari, o‘quv reja va dasturlariga muvofiq, didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigiyenik talablar asosida ishlab chiqilgan darslik, mashq daftari, o‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma va darslikning multimediali ilovalarini o‘z ichiga oladi.

O‘quv-metodik majmualarni ishlab chiqish qonun hujjatlari hamda ushbu talablarga muvofiq amalga oshiriladi.

O‘quv-metodik majmualarni ishlab chiqishning **maqsadi** o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari uchun zamonaviy fan va texnika rivojini hisobga olgan holda kompetensiyaviy yondashuv talablari asosida o‘quv materiallari mazmuni va sifatini takomillashtirish hamda ushbu sohadagi ilg‘or xorijiy tajribani samarali tatbiq etishdan iborat.

O‘quv-metodik majmualarni ishlab chiqishning asosiy **vazifalari**<sup>8</sup> quyidagilardan iborat:

- o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish prinsiplari hamda ularning mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilash;
- o‘quvchilarda milliy g‘urur va iftixor, moddiy va ma‘naviy merosga qadriyatli munosabatni tarkib toptirish;
- davlat ta‘lim standartlari talablari asosida o‘quvchilar tomonidan bilim, ko‘nikma va malaka hamda kompetensiyalarning to‘liq o‘zlashtirilishiga erishish;
- o‘quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

---

<sup>8</sup> Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 6-apreldagi 187-son qarori: O‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘lim muassasalari uchun umumta‘lim fanlaridan o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqishga qo‘yiladigan talablar.

– yangi avlod o‘quv-metodik majmualarini yaratish va amaliyotga joriy etish;

– o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash va global tafakkur yuritish kompetentligini shakllantirish;

– umumta’lim fanlarini o‘qitishning prinsipial yangi metodologiyasi asosida ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish.

– O‘quv-metodik majmualarni ishlab chiqish quyidagi prinsiplar asosida amalga oshiriladi:

– o‘quv-metodik majmualar ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari asosida yaratilganligi;

– o‘quvchilarning aqliy va jismoniy imkoniyatlari, yoshi, psixofiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari, layoqatlari hisobga olinganligi;

– o‘quvchilarda vatanparvarlik va milliy g‘urur hissini shakllantirishga qaratilganligi;

– o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining zarur hajmi berilganligi, o‘quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi.

O‘quv-metodik majmualarni ishlab chiqishga quyidagicha talablar qo‘yiladi:

**Didaktik talablar:**

– o‘quvchi tomonidan o‘quv materiallarining to‘liq o‘zlashtirilishini ta’minlash;

– matnlar axborot berishga emas, balki o‘quv fanining mazmun-mohiyatini tushuntirish maqsadlariga xizmat qilishi;

– qiziqarli, lo‘nda va hamma uchun qulay va tabaqalashtirilgan bo‘lishi;

– ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, vatanparvarlik va millatlararo totuvlik talablariga javob berishi, aniq dalillarga asoslangan materiallardan tarkib topishi;

– ta’limning kundalik hayot va amaliyot o’rtasidagi bog‘liqligini ta’minlashga, olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish layoqatlari shakllantirilishiga, boshqa o‘quv fanlari bilan uzviy bog‘liqlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan bo‘lishi;

– rasmlar ko‘rinishidagi ilustrasiyalar: xaritalar, chizmalar, sxemalar, jadvallar, diagrammalar va fotosuratlar bilan bezatilgan bo‘lishi;

– yangi tushunchalar, atamalar, qoidalar, formulalar, ta’riflar va shu kabilar lug‘at ko‘rinishida ifodalangan bo‘lishi lozim.

### **Ilmiy-metodik talablar<sup>9</sup>:**

– fan-texnikaning so‘nggi yutuqlarini o‘zida aks ettirishi;

– o‘quv fani mavzularining mazmunan yaxlitligi ta’minlangan bo‘lishi;

– o‘quv fani mavzulari O‘zbek adabiy tili qoidalariga to‘liq rioya qilgan holda oddiy va sodda, tushunarli va ravon tilda bayon qilinishi;

– mantiqiy ketma-ketlikka va izchillikka amal qilinishi;

– milliy g‘oya va O‘zbekiston xalqining mentalitetiga zid bo‘lmagan tegishli ilustrasiyalar bilan boyitilishi;

– savol va topshiriqlar aniq ifodalangan bo‘lishi;

– o‘quvchilarni fikrlashga, yozishga, tasvirlashga, chizma chizishga, hisoblashga, amaliy ishlarni bajarishga, tajribalar o‘tkazishga o‘rgatishda – pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutilgan bo‘lishi;

– bir tushunchaning ikki xil atama bilan ifodalanishiga, sanalarni keltirishda mavhumlikka yo‘l qo‘yilmasligi;

– kasb-hunarga yo‘naltirishga oid matnlar va rasmlar, izohli lug‘at, texnik ijodkorlik va mantiqiy tafakkurni o‘stirishga qaratilgan loyihalash hamda modellashtirish yuzasidan topshiriqlarni qamrab olgan bo‘lishi lozim.

---

<sup>9</sup> Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 6-apreldagi 187-son qarori: O‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalari uchun umumta’lim fanlaridan o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqishga qo‘yiladigan talablar.

### **Pedagogik-psixologik talablar:**

– keng jamoatchilik tomonidan tan olingan ilmiy asoslangan ma'lumotlar, o'quvchilarning bilim darajalari, eslab qolish qobiliyatlari, tafakkuri hisobga olingan holda voqea va hodisalarning mohiyatini anglashga va amaliy qiziqishlarini rivojlantirishga, bilim olishga va amaliy faoliyat bilan shug'ullanishga bo'lgan ehtiyojlarini to'laqonli qondirishga yo'naltirilgan bo'lishi;

– o'quv fani mavzularining o'quvchi yoshi va psixofiziologik xususiyatlariga mos holda berilishi, ma'lum faktlar, tushunchalar, qoidalar va fanlararo bog'liqlikni hisobga olgan holda tushunarli bayon qilinishi;

– o'quvchilarning yangiliklarni qabul qilish qobiliyatlari, oldin olgan bilimlarini o'zlashtirganlik darajasi hisobga olingan bo'lishi lozim.

### **Estetik talablar:**

– imkon darajasida yorqin, rangli, qiziqarli va chiroyli bo'lishi;

– matnlar o'quvchiga ma'lum ijobiy hissiy ta'sirlarni o'tkazishi va o'quv faniga qiziqish uyg'otishi;

– bo'lim, bob, paragraf va mavzular matnlarining turli shakl va ranglar bilan ajratilishi, mutanosibli ta'minlanishi;

– rasm va tasvirlar badiiy estetik talablarga javob berishi, aniq va tiniq ifodalanishi lozim.

### **Gigiyenik talablar:**

– matn va ilustrasiyalar sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga mos bo'lishi;

– harflarning kattaligi va qog'ozning sifati (og'irligi, qalinligi, oqligi va shaffofligi) Vazirlar Mahkamasining "Ta'lim muassasalari uchun matbaa mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risidagi texnik reglamentni tasdiqlash to'g'risida" 2015-yil 3-iyundagi 146-son qarori talablariga mos bo'lishi lozim.

O'quv dasturda ta'limning mazmuni masalalar ro'yxati orqali ifodalanadi. O'quv materiali o'quvchilarga mo'ljallangan darsliklar, o'quv qo'llanmalari,

kitoblar va didaktik materiallarda, o'qituvchiga mo'ljallangan metodik tavsiyalarda yoritiladi. Darslik asosiy normativ hujjat hisoblanadi. Darslik ma'lum bir fanning mazmunini dastur asosida didaktik talablarga rioya qilgan holda bayon etuvchi o'quv kitobidir. Darslik bilan bir qatorda o'quvchilarni o'quv materiallari ustida tizimli ish olib borishlari ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiradigan quyidagi kitob va qo'llanmalardan ham foydalanadilar:

1. Badiiy adabiyot.
2. Ilmiy adabiyot.
3. Ilmiy-ommabop adabiyot.
4. Masala va mashqlar to'plami<sup>10</sup>.

Darslik – o'quvchilarning kitobi va uning eng muhim qurolidir. U faqat darsda tahlil qilinadigan o'quv materialini o'zlashtirishda o'quvchiga yordam beribgina qolmay, u ayni vaqtda o'quvchilarda mazkur predmetga qiziqish uyg'otishi, shu soha bo'yicha mustaqil bilim olish ishtiyoqini ham vujudga keltirishi kerak. Darslik o'qituvchi uchun ham metodik qo'llanma sifatida xizmat qiladi: tushunchalarni kiritish tartibini, ularni yoritish chuqurligini, kiritilgan o'quv materiallariga vaqtning taqsimlanishini belgilaydi.

Obrazli qilib aytganda, darslik o'qitish jarayonining “ssenariysi”dir. Unda o'quvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar, faoliyat usullari qayd qilinadi, bilim va ko'nikmalarni ijodiy qo'llash yo'llari belgilanadi, emotsional – qimmatli qadriyatlarni tarbiyalashning ayrim vositalari ko'rsatiladi.

Darslikda ta'limning ana shu barcha mazmuni muayyan tartibda o'quvchilarning ta'lim muvaffaqiyatini ta'minlaydigan bosqichlar bo'yicha joylashtiriladi. Lekin boshlang'ich maktab darsliklari bag'oyat o'ziga xosdir. Ularning hammasida metodik apparat kichkina bo'lib, u sinflar sayin asta-sekin vujudga keladi. O'rta maktabda ba'zan o'quvchi darslikdan tamomila mustaqil holda foydalana olish-olmasligi muhokama qilinsa, boshlang'ich maktabda bu ishga o'qituvchining rahbarligi majburiydir.

---

<sup>10</sup> Mavlonova R.A. va b. Umumiy pedagogika. – T.: Fan va texnologiya, 2018. – B.528.

Ijodiy ishlaydigan o'qituvchilarning tajribasini tahlil qilib, juda muhim kuzatishni amalga oshirish mumkin.

Ular darslik va o'zlarining metodik qo'llanmalaridan aqida sifatida emas, balki normativ model sifatida foydalanadilar. Aslida o'qituvchilar sinfining ehtiyojini, kasbiy imkoniyatlarini nazarda tutib, o'z darsliklarini yozadilar. Ular darslikka zid ishlamaydilar, balki uni to'ldirib, kengaytirib va chuqurlashtirib, uning mualliflari bilan hamkorlikka kirishib ish olib boradilar. Binobarin, muallif bolalarning tayyorgarlik darajasini hisobga olish, ularga tabaqali yondashish imkoniyatiga ega bo'lmaydi.

O'qituvchi doimo o'quv yili boshlanishidan oldin va keyinchalik har kuni darslikka murojaat qiladi. Uning bundan maqsadi har gal har xil bo'ladi. Darslik o'qituvchining qo'lida juda ko'p vazifalarni bajaradi. U, avvalo, predmetni o'qitish vositasi sifatida xizmat qiladi. Har bir o'qituvchi ana shu vazifani biladi va uni muvaffaqiyatli amalga oshira oladi.

## 1.2. Darslik va uning didaktik xarakteristikolari

Darslik o'zining mazmun va tuzilishi jihatidan o'quv dasturi va o'quv predmetiga mos kelishi jihatidan o'quv adabiyotlari ichida alohida o'rin egallaydi. Shuning bilan birga u ta'lim jarayonini mustaqil tashkil etishning muhim vositasi hisoblanadi. Hattoki, ba'zi bir jihatlari bilan darslik o'qituvchi maqomi bilan ham tenglasha oladi.

Darslik bu pedagogikaning, ta'lim va tarbiya sohasining, o'qitishning, umuman olganda insoniyat taraqqiyotining eng buyuk topilmasidir. Muayyan predmet bo'yicha o'quvchilarni kerakli bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishning eng maqbul usuli bu darslik bilan ishlashdir. Darslikning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, o'quvchi undan xohlagan payti qayta-qayta foydalanishi mumkin. Undan ma'ruza matni, rasmlar jamlanmasi, mashqlar to'plami, savol va topshiriqlar manbayi va yana bir qancha maqsadlar uchun foydalansa bo'ladi.

Darslik orqali o'rganamiz, o'rganganlarimizni mustahkamlaymiz va shuningdek takrorlaymiz. Darslikdagi bu doimiy 3 funksiya darslik atamasining asrlar o'tsada, o'z maqomining yo'qotmasligini ta'minlaydi.

Har bir o'quvchi darslik orqali muayyan predmetni mustaqil o'rganish imkoniyatiga ega. Bunga misol qilib, masofaviy ta'lim olayotgan, yoki biror fanni mustaqil o'rganishga kirishgan va yoki, eng oddiy holatda darslikda berilgan materialni uyda o'qib ham o'qituvchi yordamisiz mavzu mohiyatini to'g'ri va to'liq tushuna olgan o'quvchilarni olaylik. Agar darslik osondan qiyinga, oddiydan murakkabga tamoyili asosida tuzilgan bo'lib, undagi materiallar bir-biri bilan umumiy bilimlar tizimini tashkil eta oladigan qilib, kuchli metodistlar tomonidan tuzilgan bo'lsa, bu ish unchalik ham qiyin emas. O'tmishda, qanchadan qancha buyuk allomalarimiz, olim-u fuzalolarimiz ustozlarsiz faqat mustaqil kitob o'qish orqaligina bilimlarni egallagani hech kimga sir emas, albatta.

Xalqaro hamjamiyatda ta'lim sohasida ilmiy izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar orasida shunday bir gap bor: "show me your educational resources, I will tell you who you are"<sup>11</sup>. Ya'ni aytmoqchiki, siz menga ta'limda foydalanadigan o'quv materialaringizni ko'rsating, men sizga kimligingizni aytib beraman. Xalqimizda xuddi shunga o'xshash maqol bor: "Do'sting kimligini ayt, men seni kimligingni aytib beraman. Biz insonning qanday ekanligini uning kim bilan do'st ekanligidan bilib olganimizdek, chet el olimlari ham insonning, jamiyatning bugun kim ekanligi va kelajakda kim bo'lishini ular foydalanayotgan o'qitish vositalariga qarab belgilayotgani -farzandlarimizning qanday o'quv materiallaridan foydalanib ta'lim olayotgani hatto, ularning kim bilan do'st bo'lishidan ham muhim ekanligidan dalolat beradi. Chunki bu birgina inson taqdiri bilan emas, butun bir millat taqdiri bilan, butun bir xalq ertasi bilan bog'liq!

Ma'lumki, ta'lim sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri darslikdir. Uning sifati u qanday yozilganligi, qanday xarakteristikalariga ega ekanligi, bugungi kun talablariga mosligiga, didaktik tamoyillarni qay darajada aks ettira olishligiga bog'liqdir.

Bugungi kunga kelib darsliklarga qo'yiladigan alohida talablar birmuncha shakllangan bo'lib, umumiy holda quyidagilardan iborat: o'rganilishi zarur bo'lgan o'quv materialining qadriligi va muhimligi; uning ilmiyligi; taqdim etilayotgan faktlarning hayotiy obrazlar bilan o'zaro bog'liqligi; yoritilayotgan bilimlarning hayot bilan bog'liqligi va b.

Darsliklarga qo'yiladigan talablar doimiy tarzda yangilanib bormoqda. Albatta, darsliklar ta'lim mazmunining barcha talablariga javob berishi, qiziqarli bo'lishi, lo'nda va tushunarli tilda yozilishi, o'quvchi tomonidan o'quv materialini to'la o'zlashtirish imkonini berishi kerak.

---

<sup>11</sup> Jesús Rodríguez Rodríguez, Tânia Braga Garcia, Eric Bruillard. IARTEM (International Association for Research on Textbooks and Educational Media) 1991-2016. 25 YEARS DEVELOPING TEXTBOOK AND EDUCATIONAL MEDIA RESEARCH. France -2019. 9 -410.

Didaktikada darsliklarning vazifalari aniqlangan bo‘lib, bugungi kunda ular quyidagi vazifalarni bajarishi kerak:

– **Axborot tashuvchi funksiya.** Darslik o‘quvchiga o‘quv predmetiga oid dunyoqarashini shakllantirishga, ma’naviy ozuqa beruvchi va olamni anglashga qaratilgan yetarli ma’lumotlarni yetkazishi;

– **Transformatsion funksiya** o‘rganishi kerak bo‘lgan ilmiy bilimlarni pedagogik tamoyillarga asosan qayta ishlash bilan bog‘liq. Darslikdagi o‘quv materiali ilmiylik, tizimlilik va ketma-ketlilik, yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, o‘quv materialining hayot va amaliy faoliyat bilan bog‘liqlik kabi didaktik tamoyillar asosida pedagogik moslashtiriladi;

– **Tizimlilik funksiyasi** o‘quv predmetiga oid o‘quv materiallarini tizimli va ketma-ketlikda bayon etilish talablarini amalga oshiradi;

Darslikdagi bu funksiya eng e’tiborga arzigulik jihatlardandir. O‘quvchilarni o‘qitishda sinf-dars tizimiga o‘tilganligining mantiqiy davomi sifatida har bir sinfga shu sinf o‘quvchilarining yoshi, o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, har bir predmet yuzasidan alohida darslik yaratilgan bo‘lib, bu darsliklar “quyi sinf yuqori sinfga tayyorlaydi, yuqori sinf quyi sinfda olingan bilimlar ustiga quriladi” tamoyili asosida tuziladi. Shunday qilib bilimlar bir-birini takrorlamagan holda quyidan yuqoriga murakkablashib, kengayib boradi. Bu esa muayyan fanga oid bilimlarning o‘quvchilar ongidan mustahkam o‘rin egallashiga yordam beradi.

– **Mustahkamlovchi va nazorat funksiyasi** o‘quv materialini takrorlash imkonini berish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘quv materiallarini o‘zlashtirganlik darajasini aniqlash bilan bog‘liq;

E’tibor bergan bo‘lsangiz, darsliklar o‘zining mazmuni va xususiyatidan kelib chiqqan holda, o‘z bergan bilimlarini mustahkamlash va nazorat qilish vazifasini ham bajaradi. Misol uchun, o‘qish va adabiyot darsliklarida darslik muallifi berilgan asar yuzasidan turli xil savol va topshiriqlar bilan o‘quvchilarga murojaat qilishi mumkin. Bu bilan ham asar mazmunini qayta yodga olib takrorlash,

qolaversa, ushbu mavzuni qanchalik o'zlashtirganini nazorat qilish mumkin. Matematika, fizika, kimyo darsliklarida misol, masala, mustaqil tajriba o'tkazib ko'rish kabi topshiriqlar, ijtimoiy fanlardan berilgan muammoli topshiriqlar, yozish uchun berilgan insholar ham xuddi shu funktsiyani bajarilishini ta'minlaydi.

– **Integratsion funktsiya** avval egallagan bilimlarini boshqa fanlarga oid qo'shimcha axborotlar bilan to'ldirish imkonini beradi. Mazkur vazifaning yana bir jihati shundan iboratki, o'quv predmetining mazmuni fanning asoslaridan iboratligidandir;

Bugungi kunda xalqaro ta'lim tizimida fanlarni yaxlit tizim sifatida o'rganish ommalashib bormoqda. Bu o'quvchiga butun bir olamni yaxlit, bir butunlikda tasavvur qilish va undagi har bir predmet, har bir hodisa bir-biri bilan chambarchas bog'liq ekanligini to'liq anglashga yordam beradi. Xuddi shu maqsadda darslik bajaradigan asosiy funktsiyalar safiga integratsion funktsiya ham kiritilganki, bu ushbu jarayonning tezroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, o'qish darsliklarida o'zaro tabiatshunoslik fani bilan uyg'unlikni, yoki ona tili darslarida mavzuni mustahkamlash uchun o'qish darsligida berilgan materiallar bilan ishlash talab qilingan o'rinlarni kuzatishimiz mumkin. Yana bunga yorqin misol sifatida o'quv dasturida belgilab berilgan "I-IV-sinflarda "Konstitutsiya alifbosi", "Iqtisod va soliq alifbosi", "Salomatlik darslari", "Tejamkorlik saboqlari" kabi fanlarning sodda elementlari o'qish fani mazmuniga, ya'ni mavzular kesimida singdirib o'qitilishi ko'zda tutilgan"<sup>12</sup>ligini aytib o'tishimiz mumkin.

– **Muvofiqlashtiruvchi funktsiya** o'quv materiallarini o'zlashtirish jarayoniga turli o'quv vositalarini (*xaritalar, mashqlar to'plami, elektron o'quv vositalari, ensiklopediya, audio va video materiallar, o'quv qo'llanmalarni*) jalb etishni taqozo etadi. Albatta bittagina darslik tarkibiga barcha bilimlarni sig'dirish imkonsiz. Shuning uchun uning zimmasiga muvofiqlashtiruvchi funktsiya ham

---

<sup>12</sup> Filologiya fanlari blok moduli bo'yicha umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi (I sinf) Toshkent. – 2018.

yuklatilgan va u bir vaqtning o'zida bir tomondan, o'zi bilim ulashuvchi, ikkinchi tomondan boshqa yordamchi o'quv vositalarini o'quv jarayoniga jalb qiluvchi hisoblanadi. Bu vaqtda u ulardagi ma'lumotlarni inkor etmaydi va darslikning o'zi o'quvchilarni turli o'quv vositalaridan foydalanish orqali qo'shimcha bilimlar egallashga chaqiradi.

– Darslik mazmunining o'quvchiga ma'naviy qadriyatlar orqali ta'sir ko'rsatuvchi *tarbiyaviy funksiyasi*. Darslik ham ta'limning bir qismi. Ya'ni u ham ta'lim beruvchi. Shunday ekan, u ham tabiiyki, tarbiya bilan uzviy bog'liq bo'lishi darkor. Unda beriladigan har bir ta'limiy materiallar albatta tarbiyaviy xarakterda bo'lishi, o'quvchilarni ta'lim olish jarayonida bevosita tarbiyalanishiga ham sababchi bo'lishi kerak. Bu borada ayniqsa, adabiyot, ona tili, tarix kabi ijtimoiy fanlar mazmunini yoritib berishdagi asosiy bayon etish usuli matnlar katta ahamiyatga ega. Shunday matnlar tanlansinki, bu matn oddiygina savod chiqarish vositasigina emas, ayni vaqtda u o'quvchining ongg-u shuuriga, qalbiga ta'sir etuvchi, uni faqat yaxshiliklar sari yetaklovchi, badiiy jihatdan yuksak saviyada yozilgan bo'lsin. Shuningdek, tabiatshunoslik, botanika, zoologiya, geografiya fanlarini o'rgangan o'quvchi o'z o'zidan tabiatni sevishni, uni asrab-avaylashni o'rgansin. Chunki, bunday tarbiya berish uchun biz farzandlarimizni alohida darslik bilan, alohida tarbiya maktablarida o'qita olmaymiz, sababi bunday maktabning o'zi ham yo'q.

Shularni hisobga olgan holda darsliklar zimmasiga shu kabi bir qator vazifalar yuklanadiki, bu albatta farzandlarimizning har jihatdan mukammal ta'lim va tarbiya olishlarini ta'minlashni ko'zda tutadi.

Darsliklarning tarkibiy qismi haqida gapirar ekanmiz, avvalo darsliklarning ikki qismdan tashkil topganini aytishimiz darkor:

- asosiy komponent;
- qo'shimcha komponent.

Darslikning asosiy komponenti matn hisoblanadi. Darslikka kiritilgan har qanday matnlar 3 ta kategoriyaga mansub:

- ta’rif beruvchi matn;
- bayon etuvchi;
- mulohaza yurituvchi.

Matnlar shuningdek, asosiy va qo‘shimcha materiallardan (murojaat, hujjat, xrestomatiya va hokazolardan) hamda tushuntirishlardan iborat bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning badiiy matn mohiyatini, sehrini, tarovatini, shular asosida esa o‘zbekcha so‘z nazokatini tushunishlari, his etishlari, anglab yetishlari uchun dastlabki qadamlar qo‘yiladi. Ammo har bir matnning o‘ziga xos tarzdagi yondashuvlarni taqozo etishini ham unutmaslik kerak. Dastur va darsliklarda o‘rganilishi ko‘zda tutilgan matnlar badiiy qiymati, tarbiyaviy ahamiyati hamda o‘quvchilarning yoshi, ruhiy imkoniyatlari, aqliy rivojlanish darajalariga mosligiga ko‘ra tanlangani ma’qul.

Darsliklar yuqorida aytib o‘tilganidek faqatgina matnlardan iborat bo‘lmaydi. Unda ushbu matnlarni izohlovchi, to‘ldiruvchi va konkretlashtiruvchi qo‘shimcha unsurlar ham mavjud bo‘ladi. Darslikda ishtirok etgan qo‘shimcha komponentlarga quyidagilar kiradi: savollar, topshiriqlar, masala va mashqlar, eslatmalar, jadvallar, muhim termin, ta’rif va tushunchalarni alohida shriftlar bilan ajratilishi, grafik va illyustrativ materiallardan iborat bo‘lishi, sarlavhalarga ajratilishi.

Darslik bilan o‘quv jarayoni o‘zaro bog‘liq bo‘lib, unda savollar, topshiriqlar, jadvallardan, statistik, xronologik ma’lumotlar va hokazolardan o‘z o‘rnida foydalanish lozim.

Darsliklardagi savollar va topshiriqlar ta’lim konsepsiyasi asosida tuzilgan va metodik nuqtayi nazardan to‘g‘ri joylashtirilgan (kamol toptirish maqsadida yoki rasmlar orqali ifodalangan) bo‘lishi lozim. Ular, asosan, quyidagi uch guruhga bo‘linadi.

Birinchi guruhga bilimlarni mustahkamlash, o‘zlashtirilgan narsalarni esga tushirish va malakalarni shakllantirishga doir savol va topshiriqlar kiradi.

Ikkinchi guruh tafakkurni o‘stiradigan (mustaqil ishlashni, taqqoslash, umumlashtirish, baholash, xulosa chiqarish, bilimlar tizimini mustahkamlash, aniqlash va tajribaga solishni talab qiladigan) savol va topshiriqlardan iboratdir.

Uchinchi guruh o‘zlashtirilgan bilimlarni amalda qo‘llashga (mustaqil ishlarni bajarish va malakalarini egallashga) doir savol va topshiriqlarni o‘z ichiga oladi.

Darslikda dasturning barcha talablari aks etishi va asosiy g‘oyalar, xulosalar yaqqol ifodalanishi lozim. Darslikni bolalarga moslashtirishda quyidagilarni alohida e‘tiborga olishni bilish kerak:

- materiallarni darsliklarga to‘g‘ri taqsimlash;
- o‘quvchilarga beriladigan vazifalarni asta-sekin qiyinlashtirib borish (tizimga solish);
- o‘quvchilarga tabaqali yondashishni nazarda tutish (topshiriqlarni qiyin yoki osonligiga qarab tanlash);
- darsda, uy vazifalarini bajarishda, takrorlashda asosiy va qo‘shimcha materiallarni ajratish;
- darslikdagi savol va topshiriqlarning mo‘ljallangan vaqtga mosligi va o‘quvchilarni qiynab qo‘ymasligi;
- darslikning mazmuni (o‘quvchilarni qiziqtirishi, matnlarning g‘oyaviy va estetik jihatlari) uni o‘rgatishning metodik tizimiga muvofiq bo‘lishi;
- darslik tilining osonligi va ravonligi, o‘quvchilar nutqini o‘stirish uchun namuna bo‘la olishi<sup>13</sup>.

Har bir darslik o‘quv reja va o‘quv dasturda ko‘zda tutilgan maqsadni amalga oshirishga qaratilgan bo‘lib, undagi har bir mavzu uchun ajratilgan materiallar avvalo qaysi auditoriyada foydalanilishiga qarab muayyan vaqt uchun mo‘ljallangan bo‘ladi. Ayniqsa bu reglamentga boshlang‘ich sinf darsliklarida katta ahamiyat beriladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun yaratilgan darsliklardagi bir kunlik o‘tiladigan mavzu o‘sha yoshdagi o‘rtacha

---

<sup>13</sup> Mavlonova R.A. va b. Umumiy pedagogika. – T.: Fan va texnologiya, 2018.

o'zlashtirishga ega o'quvchilarning 45 daqiqada egallashlari mumkin bo'lgan materiallardan tuzilgan bo'lib, uyga berilgan topshiriqlar bu vaqt hisobiga kiritilmaydi. Uyga berilgan vazifa uchun ham yoshiga mos ravishda turlicha vaqt talab qiladigan topshiriqlar beriladi. Darslik mualliflari faqatgina darslik yozish bilangina chegaralanmay, uning mazmuni, tuzilishi, dizayni va unda berilgan materiallarning o'quvchilar psixologiyasiga ta'siri, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mosligi, bu bilimni egallash uchun qancha vaqt sarflashi, bu jarayonda o'quvchilar qanday muammolarga duch kelishi mumkinligini hisobga olishlari kerak.

Darslikni tahlil qilishda uning tuzilishi, mavzularning o'rni, illyustratsiyalarga boyligi va eng muhimi o'quvchilarga ta'siri hisobga olinishi kerak. Mana shu talablar amalga oshirilishi uchun har bir yangi darslikni yaratishning o'ziga xos muammolarini to'g'ri hal qilish, darslik o'quv-metodik ishlarining asosi bo'lishi kerakligini nazarda tutish shart<sup>14</sup>.

Buyuk chex pedagogi Komenskiy ham darslik qanday bo'lishi to'g'risida quyidagi qimmatli fikrlarni qoldirgan: "Darslikda o'quv materiali yetarlicha bo'lishi, qisqa, mazmunli, tushunarli, izchil berilishi kerak. Darslik oddiy, bolalarga tushunarli tilda yozilishi, rasmlarga boy bo'lishi kerak. Darslikdagi material muntazam tartib bilan joylashtirilishi, bolalarning yoshiga qarab ravshan bayon etilishi shart. Bu fikrlarni o'zining "Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi" va "Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari" kabi darsliklarida bayon etadi. Bu fikrlarning naqadar amaliy ahamiyatga ega ekanligini pedagog darsliklarining boshlang'ich ta'lim uchun 150 yildan ko'proq yaxshi darslik sifatida xizmat qilgani bilan asoslash mumkin<sup>15</sup>.

---

<sup>14</sup> Peter Menck Looking Into Classrooms: Papers on Didactics. 2010.

<sup>15</sup> Mavlonova R.A. va b. Umumiy pedagogika. – T.: Fan va texnologiya, 2018. – B.434.

### **1.3. Boshlang'ich sinf darsliklari va ularning o'ziga xos xususiyatlari**

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2006-yil 31-maydagi "Umumta'lim maktablarini darsliklar bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-362-sonli qarorining qabul qilinishi darsliklar mazmun-mohiyatini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni izchil yo'lga qo'yish, umumta'lim maktablari o'quvchilarini ijtimoiy qo'llab quvvatlash kabi aniq maqsadga yo'naltirilgan jarayon ko'lamini yanada kengaytirish imkoniyatini berdi.

Qarorda ta'kidlanganidek, 1-sinf o'quvchilari uchun darsliklar Prezident sovg'asi sifatida har yili bepul, 2-4-sinf o'quvchilari uchun har ikki yilda qayta chop etilib, ijara asosida berilishi belgilab qo'yilgan.

Bundan tashqari, har bir o'quvchi savodga o'rgatish davrida foydalanadigan 1-sinf o'quvchilari uchun yozuv daftari va matematika ish daftari hamda chet tillari fanidan darslikka qo'shimcha sifatida mashq daftarlari bilan ham ta'minlanadi.

So'nggi yillarda bu tizim rivojlanishi uchun hukumat miqyosida bir qancha keng ko'lamli islohotlar o'tkazildiki, natijada sohadagi ayrim masalalar o'z yechimini topdi va topmoqda. Masalan, maktab o'quvchilarini darsliklar bilan to'liq ta'minlash masalasi. Hech birimizga sir emaski, asrimiz boshida bu masala ham ta'lim tizimimizdagi eng dolzarb masalalardan edi. Lekin sohaga qaratilgan e'tibor tufayli bu masala o'zining ijobiy yechimini topdi. Hozir biz komil ishonch bilan ayta olamizki, mamlakatimizning eng chekka hududlarida bo'lsin, darslik bilan to'liq ta'minlanmagan o'quvchi deyarli qolmadi. Bu biz – boshlang'ich sinf o'qituvchilarini quvontiradi, albatta. Hattoki, maktabni qo'ya turing, o'quvchilarning maktabga tayyorgarlik davrini mazmunli tashkil etish va ularni boshlang'ich sinfga sifatli tayyorlash maqsadida maktabgacha ta'lim muassasalari va ota-onalar uchun mo'ljallab 5 ta nomdagi ("Nutq o'stirish, o'qish va savodga tayyorlash", "Matematik tasavvurlarni shakllantirish",

“Bolajon” dasturi asosida nasriy hamda she’riy to‘plamlar, “Sog‘ tanda – sog‘lom aql”) suratli qo‘llanmalar tayyorlanib, yetkazib berilganiga alohida urg‘u berishni istardik. Ular asosida nafaqat bola maktabga tayyorlanadi, balki ota-ona ham bu jarayonga jalb etiladi va maktabdagi ta’lim-tarbiya ishiga o‘z hissasini qo‘shadi.

Boshlang‘ich ta’limda ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarni keng joriy etish maqsadida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun 7 nomdagi metodik qo‘llanmalar va ularning multimediali ilovalari tayyorlangani hamda 745 ming nusxada ta’lim muassasalariga yetkazilgani ham muhim yangiliklardan biri bo‘ldi. Bundan tashqari, 500 dan ortiq nomdagi elektron darsliklar, video va audiodarslar, interaktiv va animatsiyali virtual laboratoriya ishlari, testlar, ta’limiy o‘yinlar hamda 30 dan ortiq interaktiv xizmat va axborot tizimlari yaratilib, amaliyotga joriy etildi.

Boshlang‘ich ta’limni samarali tashkil etish uchun yaratilgan ushbu o‘quv-metodik adabiyotlar sanog‘i kundan kunga sezilarli miqyosda ortib bormoqda. Bu albatta yaxshi. Chunki, bu sohaga sarflangan vaqt va mablag‘ hech qachon o‘zini oqlamay qolmaydi. Axir jahonning eng kuchli iqtisodchilari ham ta’kidlaganidek, eng yaxshi sarmoya bu – farzandlarimiz kelajagi uchun sarflangan sarmoyadir.

Ho‘sh, barcha o‘quvchilar kerakli darsliklar bilan to‘liq ta’minlangan bo‘lsa, unda muammo nimada dersiz? Eng asosiy masala ham aynan shunda. Bizga darsliklarning soni bilan birga sifati ham birdek muhim. Hammani darslik bilan ta’minlash bu sifatli ta’lim degani emas. Hali oldinda undanda muhim masalalar bor. Bizning endilikda qiladigan eng muhim vazifamiz – darsliklarimizning sifati ustida ishlash bo‘lishi kerak. Biz qachonki darsliklarimizni sifat va miqdor jihatdan tenglikda, eng yuqori darajaga olib chiqa olar ekanmiz, shundagina biz maqsadimizga erishgan bo‘lamiz.

Bu mavzu haqida gap ochishimizdan maqsad, sizning e’tiboringizni boshlang‘ich sinf darsliklarimizda bir necha yillardan beri yig‘ilib kelayotgan va eng achinarlisi bugungi kunda ham mavjud bo‘lgan muammolarga qaratmoqchimiz. To‘g‘ri, dunyoda hech narsa mukammal bo‘lmaydi. U faqat

mukammallikka intiladi xolos. Lekin ana shu intilishga kuch beradigan va uni mukammallashuviga eng katta ko‘mak bera oladigan bosh omil bu – to‘g‘ri tanqid!

O‘rganish obyekti sifatida tanlangan darslik 1-sinf o‘qish kitobi<sup>16</sup>. Darslik 2019-yil “Sharq” nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan nashr etilgan. Muallif-tuzuvchilar: T.G‘afforova, E.Shodmonov, G.Eshurdiyeva. Adadi: 533762 nusxa; hajmi: 128 b.

O‘qish fanini mavzuiy rejalashtirish<sup>17</sup>ga ko‘ra, 1-sinfda o‘tiladigan o‘qish darslari uchun jami 68 soat ajratilgan bo‘lib, shundan 6 soati nazorat ishlari va ularning tahliliga bag‘ishlangan. Qolgan 62 soatida darslik bilan ishlanadi. (1-jadval. Ilovaga qaralsin)

Demak, nafaqat o‘qish balki, boshqa predmetlarni o‘qitishda ham asosiy yo‘lboshchi bu – darsliklar bo‘lishini inobatga olgan holda, darsliklarning mazmuniga, ya’ni unda mavzuni yoritish uchun qanday usullardan va materiallardan foydalanilyapti, darslikka kiritilgan materiallar sifat va miqdor jihatdan o‘quvchining yoshi va qiziqishlariga mosmi, umuman, amaldagi darsliklar 21-asr bolasini qoniqtiradimi degan savollarga yechim topishga alohida e’tibor bermog‘imiz darkor.

Xususan, ushbu darslikda berilgan materiallarni janr jihatdan tahlil qiladigan bo‘lsak, darslikdan jami 46 ta nasriy asar, 27 ta she‘r, 41 ta maqol, 25ta tez aytish, 39 ta topishmoq, 14 ta hikmatli gap va 45 ta savol va topshiriqlar o‘rin olgan.

Berilgan 46 ta nasriy asardan 16 tasi ilmiy-ommabop matn harakterida.

Endigina alifbo saboqlarini tugatib, o‘qish kitobini qo‘lga olgan 1-sinf o‘quvchisini darslikda berilgan bu 16 ta ilmiy-ommabop matn va yana shu harakterdagi bir nechta matn tarkibiga kiritiladigan asarlar darslikdan o‘rin olgan.

---

<sup>16</sup> G‘afforova T., Shodmonov E., Eshurdiyeva G. O‘qish kitobi: 1-sinf uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2019. – 128 b

<sup>17</sup> Filologiya fanlari blok moduli bo‘yicha umumiy o‘rta ta’limning o‘quv dasturi (I sinf). Toshkent, 2018.

Har birimiz bola bo'lganmiz va agar bola psixologiyasini biroz unutib qo'ygan bo'lsak, uyimizda va yoki yon-atrofimizdagi bolalarni kuzatish orqali ham bilishimiz mumkinki, bunday asarlar bolalarni juda qiziqtirmaydi. Ularning o'zlarining dunyosi bor. Va u olam tasavvur, xayolot olamiga asoslanadi. Bu yoshdagi bolalar turli xildagi obrazlilik va qiziqarli syujet asosida, sodda tilda bayon etilgan ertak, hikoya, masal, matal, afsona va rivoyat kabi janrdagi asarlar shaydosi bo'ladi.

Ilmiy-ommabop matnlarning mavzusi asosan, vatan, tinchlik, kitobni asrash, yil fasllari va tabiat go'zalliklari haqida bo'lib, bunday matnlarda aytilmoqchi bo'lgan gapni badiiy asarlar orqali aytishga, o'ylaymanki, o'zbek va jahon bolalar adabiyotida yetarlicha material topiladi.

Darslik mazmuni haqida gapirar ekanmiz 62 soat hajmida berilgan dars soatining 20 soati yil fasllari mavzusiga bag'ishlangani ham maqsadga muvofiq emas! Amaldagi 1-sinf "O'qish kitobi"ning oldingi nashrlarida bu soat hajmi deyarli ikki barobar kam edi. To'g'ri, darslikda makon va zamon nafasi sezilib tursa, darslik o'qishli bo'ladi. Lekin ba'zi bir sabablarga ko'ra bu mavzu doirasini biroz qisqartirish kerak.

Birinchidan, yosh bola bu oppoq qog'oz va biz unga yozmoqchi bo'lgan narsalar shunchalik ko'p va shunchalik muhimki, buni aslo kechiktirib bo'lmaydi. Biz ularni o'zbek va chet el bolalar adabiyotining eng sara namunalaridan bahramand qilish asnosida, ham ularning badiiy adabiyotga bo'lgan didini o'stiramiz, qolaversa, ularni shu badiiy asarlar orqali tarbiyalaymiz! Agar bu asarlar mehr-oqibat, mehnatsevarlik, halollik, sahiylik, va boshqa bir qator insoniy fazilatlarga ko'zgu tutsa, nur ustiga a'lo nur bo'lar edi.

Ikkinchidan, yil fasllari va tabiat haqidagi materiallar (ayniqsa ilmiy-ommabop matn harakteridagi) "Atrofimizdagi olam" darsligidan ham o'rin olgani va bu bilan takroriylikka yo'l qo'yilgani, o'quvchilar vaqtini o'xshash narsalar bilan band qilinayotganligidan va turli predmetlar bo'yicha darslik yaratayotgan mualliflarning hamkorlikda ishlamayotganligidan darak beradi.

Darslikka kiritilgan she'riy va nasriy asarlar jami 73 ta bo'lib, ulardan 14 tasining muallifi yoki olingan manbasi aniq keltirilmagan. Bu birinchidan, olingan materialning ishonchliligiga soya solsa, ikkinchidan, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ham biroz o'ylantirib qo'yadi. Boisi, metodika darslaridan va ish faoliyati tajribamizdan shu ayonki, o'qituvchi o'quvchilarni asar bilan tanishtirishdan avval, unga asar muallifi haqida ma'lumot berib o'tishi lozim. Qolaversa, bu an'ana o'quvchilarning asar muallifi haqida ma'lumotga ega bo'lishdek ta'limiy vazifadan tashqari, ularni har narsaning o'z egasi borligi (hatto ma'naviy boyluk bo'lsin!) va mualliflik huquqi haqidagi tushunchalarini rivojlantirish va o'zganing mehnatini qadrlash, unga hurmat ko'rsatishdek tarbiyaviy vazifani ham bajaradi.

Biror badiiy asar va uning mazmunini qayta eslashga qaratilgan savollar tuzib qo'yish darslik yaratish degani emas. Adabiyot darsliklarining o'ziga xos ilmiy-pedagogik talablari, zimmasiga oriladigan ijtimoiy-didaktik yuk bor. Duch kelgan o'qituvchi darslik yaratolmagani singari, metodika ilmi bilan maxsus shug'ullanmagan filolog ham yaxshi darslik yarata olmaydi.

Bu darslik bo'yicha maktab o'qituvchilari tomonidan e'tirozlarga sabab bo'layotgan yana bir jihat, o'zgartirilib qayta chop etilgan darslik bilan birgalikda uning o'zgartirilgan multimediali ilovasi va o'qituvchi kitobi o'z vaqtida muallimlar qo'lga yetib bormayotganligidir. Buning natijasida, o'qituvchi mavzulardagi o'zgarishlar tufayli na yangi mavzu yuzasidan o'qituvchi kitobidan metodik yordam ola oladi, na zamonaviy texnologiya vositalari bo'lgan mavjud multimedialardan foydalana oladi! Bu ilmiy tilda aytganda tizimlilik, uzluksizlik va uzviylik tamoyillarining buzilishi deb baholanadi hamda o'qituvchi faoliyatida va o'quvchi o'zlashtirishida bo'shliqlarni yuzaga keltiradi.

## I BOB YUZASIDAN XULOSALAR

“Zamonaviy darslik davlat ta’lim standarti, o‘quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy istiqloq g‘oyasi singdirilgan, muayyan o‘quv fanining mavzulari to‘liq yoritilgan, tegishli fan asoslarining mukammal o‘zlashtirilishiga qaratilgan hamda turdosh ta’lim yo‘nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan, did bilan ishlangan rasmlar bilan boyitilgan matbaa sifati yuqori bo‘lishi lozim”<sup>18</sup>.

Har bir nashrdan chiqayotgan boshlang‘ich sinf darsligi avvalo yuqoridagi talablarga to‘la javob bera olishi kerak. Qolaversa, boshlang‘ich sinf darsliklarini yaratish masalasi bu talablarga qo‘shimcha ravishda o‘quvchilarning qiziqishlarini ham hisobga olish kerakligini taqozo etadi. Chunki, birinchidan, bugungi globallashuv jarayonida farzandlarimizning diqqatini tortadigan, ularga darsliklar bilan ishlashdan ham qiziqarli tuyulgan boshqa faoliyat turlari ham kam emas. Telefon va kompyuter o‘yinlari, televizorda namoyish qilinayotgan turli xil seriallar, internet va yana shu kabi zararli ermaklar allaqachon yoshlarimizning sevimli mashg‘ulotiga aylanib ulgurgan. Shunday bir keskin vaziyatda farzandlarimiz uchun yaratilayotgan darsliklarga har narsadan va har doimgidan ko‘proq e’tibor berishimiz kerak. Biz shunday darslik yaratishimiz kerakki, bu darslik yuqoridagi zararli ermaklardan har tomonlama ustun tursin, tanlov paytida faqatgina bizning kitoblar tanlansin!

Ikkinchidan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarigagina xos bo‘lgan yana bir mas’uliyat talab qiladigan shunday vazifa borki, u darslikning aynan boshlang‘ich sinflar uchun yaratilishini nazarda tutadi. Demoqchimizki, endigina o‘qish va yozishga o‘rganayotgan o‘quvchilarning darsliklarga, umuman kitoblarga muhabbatini oshirish, kitobni sevishga, qadrlashga o‘rgatish va doimiy kitob mutolaasiga oshno qilishda boshlang‘ich sinflar uchun nashr qilinayotgan darsliklarning o‘rni beqiyos. Har qanday bolada uning ilk qo‘liga olgan

---

<sup>18</sup>Отахонова С. Дарсликлар хакида // “Маърифат” газетаси. 2004 йил. 9 июн, 46-сон.

kitoblariga qarab boshqa bir kitoblarga bo'lgan qiziqish shakllanadi. Yaxshi taassurot qoldirgan, o'quvchilarning sevimli, qo'ldan qo'ymay o'qiydigan kitoblariga aylangan nashrlar nafaqat bugungi berilgan ta'lim muvaffaqiyati garovi, balki, bugungi paydo bo'lgan mutolaaga muhabbat tufayli kelajakda o'qilishi mumkin bo'lgan yana bir qancha kitoblarning sonini ifodalaydi.

Darslik yaratish uchun qandaydir ilmiy unvon emas, oddiy maktab o'qituvchisidiki bo'lsin tajriba kerakligi kundan kunga oshkor bo'lib bormoqda. Mualliflar orasida amaliyotchi o'qituvchilarning kamligi va ularning "bir yoqadan bosh chiqarib ishlamasligi" darsliklarning o'zaro sinflar miqyosida bir-biriga bog'lanmasligiga olib kelyapti. Bu esa "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"dagi uzviylik, uzluksizlik tamoyillarining qo'pol ravishda buzilishidir. Agar o'rganilgan bilimlar zanjir tarzida bir-biriga bog'lanmasa, yoki bir-birini inkor etsa, bu tizimli bilimga aylanmaydi.

Xulosa qilib aytganda, darsliklar har bir fan uchun bitta bo'ladimi, yoki o'z variantlariga ega bo'ladimi, avvalo, umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlari talablariga javob bersa, darslik yozayotgan mualliflar hamjihatlikda ish olib borsa va ushbu mualliflar jamoasida maktabda dars beradigan tajribali amaliyotchi o'qituvchilar ham o'zining mustahkam o'rniga ega bo'lsa, bu masala albatta, o'z yechimini topadi.

## **II BOB: BOSHLANG‘ICH SINIF DARSLIKHLARI YARATISH ROSSIYA TAJRIBASI MISOLIDA**

### **2.1. Boshlang‘ich sinf darsliklari yaratishning jahon hamjamiyatida sinalgan konseptual asoslari**

Boshlang‘ich sinf darsliklari yaratishning xalqaro standartlari va asosiy mezonlari 4 guruhga bo‘lib o‘rganiladi:

1. Darsliklarni tayyorlash va nashr qilish.
2. Darsliklarni tanlab olish.
3. Darsliklarning o‘quvchilarga taqsimlanish shart-sharoitlari.
4. Darsliklardan ta’limda foydalanish.

1959- yil Jenevada “Primary textbook”<sup>19</sup> mavzusida o‘tkazilgan XXII xalqaro konferensiyada jahonning 69 davlati ishtirok etgan va har bir davlat o‘zining boshlang‘ich sinf darsliklarini yuqoridagi mezonlar asosida tavsiflab bergan. Unga ko‘ra konferensiya tashkilotchilari unda qatnashayotgan 69 davlatning Xalq ta’limi vazirliklariga quyidagi savolnoma bilan murojaat qilgan.

#### **Darsliklarni tayyorlash va nashr qilish bo‘yicha:**

1. Darsliklar kim tomonidan tuziladi? (yakka muallif tomonidanmi yoki saylanma organ? Ular ta’lim vazirligi tomonidan tayinlanadimi, yoki o‘zlarining shaxsiy tashabbuslari sabab bu ishga kirishadimi?)

2. Maktab o‘quvchilari foydalanishlari uchun yaratilayotgan darsliklarning nashr etilishini nazorat qiluvchi Nizom bormi?

3. Darsliklarni kim nashr qiladi? (davlatmi, ta’lim vazirligimi, xususiy nashriyotlarmi yoki boshqa tashkilotlarmi?) Davlat hisobidanmi, yoki mustaqil moliyaviy asosga egami?

4. Darslik mualliflari yoki ularni nashr qiluvchi nashriyotlar o‘rtasida darslik tarkibini yaxshilash bo‘yicha raqobat ko‘zga tashlanadimi?

---

<sup>19</sup> XXII<sup>nd</sup> INTERNATIONAL CONFERENCE ON PUBLIC EDUCATION. GENEVA – 1959.

5. Darsliklar o'quvchilarning hududiy an'analarga asoslangan holda o'z ona tilida yaratiladimi?

6. Darsliklarda xalqaro, diniy, irqiy va ijtimoiy tushunchalarga zarar yetkazuvchi har qanday elementlarni kiritishni oldini olish uchun qanday ehtiyot choralari ko'rilgan?

7. Darsliklarda bugungi kun holati va ilm-fan taraqqiyotini to'laqonli aks ettirishi uchun yetarli darajada tezlikda qayta ko'rib chiqish uchun qanday qadamlar qo'yilgan?

8. Darsliklar o'rtacha hisobda qancha muddatda qayta nashr qilinadi?

9. Darslikning ichki tuzilishi o'quv reja talablari va boshqa turli xildagi me'yoriy hujjatlarga mos kelishini ta'minlash uchun maxsus mezonlar ishlab chiqilganmi?

10. Darslikdagi shakl va illustratsiyalarning bevosita ta'lim jarayoni mazmuni va o'quvchilarning yoshiga mos kelishini ta'minlash masalasida qanday ishlar olib borilgan?

11. Estetik nuqtayi nazardan darslik yaratishda foydalaniladigan printer tipi, illustratsiya va prezentatsiyalarga muayyan bir rasmiy talablar qo'yilganmi?

12. Har bir fan uchun alohida darslik yaratilganmi yoki bitta darslik hamma fan mazmunini o'zida aks ettiradimi?

13. Darslik oxirgi nashrga berish oldidan sinov maktablarida tajribadan o'tkaziladimi?

Ushbu savolnoma yuzasidan to'plangan ma'lumotlarni statistik jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, dunyoning taxminan 2/3 qismidagi davlatlarda boshlang'ich sinf darsliklari yakka va jamoaviy ishlaydigan xususiy mualliflar tomonidan o'zlarining tashabbusi asosida tuziladi. Shuningdek, dunyo mamlakatlarining chorak qismida yangi darslik yaratish tashabbusi ta'lim vazirliklari yoki boshqarmalari zimmasiga tushadi va yangi darslik tuzishga ehtiyoj tug'ilganda ushbu vakolatli davlat ta'lim tashkilotlari yangi darsliklar

yaratishni o'zining maxsus qo'mitalari yoki soha mutaxassislaridan tuzilgan guruhga topshiradi hamda shu orqali darslik yaratish tizimini boshqaradi.

Dunyoning uchdan bir qismidan kamroq mamlakatlarda esa yuqoridagi ikki usul aralash holatda kuzatiladi.

Bu savollarni berishdan maqsad, darsliklar tizimini yaxshilash uchun biz avvalo, hamma uchun umumiy bo'lgan ushbu savollarga javob topishimiz kerak. Buning uchun o'z darsliklarimizni jahon standartlariga mos kelish-kelmasligi, darslik yaratish sohasida biz e'tibor bermayotgan jihatlar nimada ekanligini chuqur tahlil qilib chiqishimiz darkor. Ta'lim tizimimizni rivojlantirish malakali mutaxassis va sifatli darslikka bog'liq ekanligini hisobga olsak, sifatli o'qituvchi tayyorlashdan ko'ra, sifatli darslik yaratish osonroq ish ekanlig<sup>20</sup>ini tan olishimiz kerak. Va albatta, maqsadga erishish uchun faqatgina balandparvoz gap bo'lib qolayotgan "sohaga yetuk kadrlar tayyorlaymiz" masalasini bir chetga surib, bundan osonroq bo'lgan usul – sifatli darslik yaratish ustida bosh qotirish bizni marraga tezroq yetkazishi haqida o'ylab ko'rishimiz kerak. Biz sifatli darslik yarataylik, o'qituvchilarning o'zi o'sha darslikdan foydalanish uchun ham o'z ustida ishlaydi. Qolaversa, agar darslik biz kutgan darajada sifatli bo'lsa, uni o'rganish uchun o'qituvchiga muhtojlik sezilmaydi, o'qituvchilarning o'zida ham ushbu darsliklar bilan mustaqil ishlash imkoniyati paydo bo'ladi. Zero, jahon darsliklari bo'yicha yetuk mutaxassis, avstriyalik doktor Richard Bamberger aytganidek: "We cannot change the attitudes and ways of one hundred teachers overnight. However, you can change one million textbooks"<sup>21</sup>. Bu jumlaning O'zbek tiliga tarjima qilsak, quyidagi ma'no kelib chiqadi: "Biz yuzta o'qituvchining (ta'lim berish) usullari va (ta'limga) munosabatini birdaniga

---

<sup>20</sup> ARNO REINTS, *Iartem board member. Member's word*. IARTEM (International Association for Research on Textbooks and Educational Media) 1991-2016. 25YEARS DEVELOPING TEXTBOOK AND EDUCATIONAL MEDIA RESEARCH. France – 2019. 56 – 410.

<sup>21</sup> Jesús Rodríguez Rodríguez, Tânia Braga Garcia, Eric Bruillard. IARTEM (International Association for Research on Textbooks and Educational Media) 1991-2016. 25YEARS DEVELOPING TEXTBOOK AND EDUCATIONAL MEDIA RESEARCH. France – 2019. 21 – 10.

o'zgartira olmasligimiz mumkin, lekin siz millionlab darsliklarni o'zgartira olasiz!"

Shu o'rinda Milliy darsliklarimizning qanday yaratilishi haqidagi savolga javob berib o'tsak. Darslik va o'quv-metodik qo'llanmalarni nashr qilish jarayoni bir qancha hujjatlar asosida tartibga solinadi. Jumladan:

- Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 22-noyabrdagi 548-sonli qarori<sup>22</sup> bilan tasdiqlangan darsliklar va mualliflar tarkibini tanlab olish to'g'risidagi nizom;
- Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 5-apreldagi 281-sonli qarori<sup>23</sup> bilan tasdiqlangan muqobil darsliklar to'g'risidagi nizom;
- Xalq ta'limi vazirining 2018 yil 26 noyabrdagi 291-sonli «Davlat o'rta umumta'lim maktablari uchun darsliklar va o'quv-metodik adabiyotlarni nashr qilish tartiblarini takomillashtirish to'g'risida"gi buyrug'iga asoslanadi.

### **Darsliklarni tanlab olish**

Ta'limda foydalanish uchun darsliklarni tanlab olishning butun jahonda e'tirof etilgan shunday umumiy kriteriyalari mavjudki, muayyan bir davlatning ushbu tizimini o'rganishni maqsad qilgan tadqiqotchi avvalo, ushbu savolnomani o'rganib chiqishi lozim.

1. Darsliklarni tanlab olishga kim javobgar? Mas'ul mutassaddilar darsliklarni tanlab olishda nimalarga e'tibor berishadi? Qanday mezonlarga asoslanadi? Bajaradigan ish tartibi nimalardan iborat?

2. Darsliklarni tanlab olish muayyan hududning o'qituvchilari, xalq ta'limi bo'limining vakillari yoki hududdagi maktablar ma'muriyatining vakolatiga kiradimi? Agar shunday bo'lsa, ushbu mas'ul shaxslar xohlagan kitoblarini darslik sifatida tanlab ola oladimi? Yoki ularning tanlovi muayyan rasmiy ro'yxat asosida cheklanganmi?

3. Agar tanlov uchun o'quv qo'llanmalari va darsliklarning tasdiqlangan rasmiy ro'yxati bor bo'lsa, ushbu ro'yxat qaysidir rasmiy vakolatli organ

---

<sup>22</sup> <https://lex.uz/docs/373342>

<sup>23</sup> <https://lex.uz/docs/4273357>

tomonidan (Xalq ta'limi vazirligi yoki boshqarmasi) tuziladimi? Ushbu ro'yxatni tuzish qanday mezonlarga asoslanadi?

4. Davlat va xususiy maktablar uchun yaratilgan darsliklar orasida farq bormi, agar bor bo'lsa ular qaysilar?

Darslik tanlab olish mas'uliyati ulkan tajriba talab qiladi. 1959-yilgi konferensiya materiallariga asoslanadigan bo'lsak, dunyoning yarmidan ko'p davlatlari ta'lim tizimida yuqori turuvchi tashkilotlar maktablar uchun darsliklarni saralab olishga mas'ul bo'lishi va maktablar o'sha tanlangan ishlardan foydalanishga majbur ekanligiga guvoh bo'lamiz. Undagi ma'lumotlarga ko'ra, agar bitta fan uchun bir nechta darslik tanlab olingan bo'lsa, ta'lim vazirligi albatta, tanlangan ishlar ro'yxatini e'lon qiladi va bu bilan ular maktablarni alternativ tanlov bilan ta'minlaydi.

10 ta davlatda hukumat darsliklarning rasmiy ro'yxatini tayyorlanmagan, hattoki tavsiya etish uchun ham.

Jahon miqyosidagi xususiy maktablar mavjud bo'lgan davlatlarning yarmidan ko'pida, xususiy va davlat maktablari darsliklarida umumiy farqliliklar kuzatilmaydi. Dunyo mamlakatlarining chorak qismida xususiy va davlat maktablari uchun darsliklarni mustaqil tanlash huquqi berilgan. Bitta davlatda har bir xususiy maktab o'zini o'zi darslik bilan ta'minlashi aytib o'tilgan.

Bugungi kunga kelib, bu an'ana keng tus olgan bo'lib, bu hattoki xususiy maktab darsliklari orasidagi sog'lom va kuchli raqobat yuzaga kelishini va bu orqali mukammal darsliklar yaratilishini ta'minlaydi.

Ta'lim medialari va darsliklarni o'rganish xalqaro assotsiyatsiyasi (IARTEM)ning bergan ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda dunyo mamlakatlarining qariyb 60 foizida maktablar uchun darslik tanlab olish huquqi o'sha darslik asosida ta'lim beruvchi o'qituvchining o'zigagina berilgan bo'lib, bunday davlatlar qatoriga AQSH, Angliya, Fransiya va shu kabi qator rivojlangan davlatlar kiradi. Bunga sabab bu davlatlarda xususiy maktablarning ko'pligi va ularning o'qitish tizimini nazorat qilish davlat ixtiyorida emasligidir. Har bir

xususiyl maktab o'zining xususiyl o'quv rejasi va darsligiga ega. Bu maktablarda muayyan bir fan yuzasidan darslik tanlab olish shu fan o'qituvchisi tavsiyasiga ko'ra maktab qarori asosida amalga oshiriladi. 2014-yil Braziliya maktablarida o'tkazilgan taqdqiqot natijalariga ko'ra o'qituvchilarning darslik tanlash borasidagi eng asosiy e'tibor beradigan jihatlari quyidagilar:<sup>24</sup>

- darslikda berilgan matn va lug'at boyligining hajmi;
- maktab o'quv rejasi bilan taqqoslanishi;
- rasm sifati, matn o'lchami va faoliyat turlari.

Sikorova (2002) esa darsliklarni tanlab olishda quyidagi jihatlarni hisobga olish kerak degan fikrga keldi:<sup>25</sup>

- darslikda berilgan mashq va savollarning yetarliligi;
- darslikda berilgan matn va mashqlarning xilma-xilligi.

Bu fikrlar albatta, xususiyl deyishingiz mumkin. Lekin jahondagi deyarli har bir darslik tanlashga mas'ul shaxslarning umumiy fikri ham mavjud: "Darsliklar avvalo, o'quvchiga bilim olish uchun motivatsiya bera oladigan bo'lishi shart"<sup>26</sup>.

Ushbu ma'lumotlarni o'rganar ekanmiz, qiziq statistik ma'lumotga ham duch keldik. Unga ko'ra, erkak o'qituvchilar asosan, darsliklarning ilmiyligiga, tajribalarga boyligiga e'tibor berar va darsliklarning induktiv modelini afzal ko'rar ekan. Ayol o'qituvchilar esa, ko'proq darsliklarda berilgan illustratsiyalarning ko'pligi va xilma-xilligi, shuningdek undagi matnlarning bahs-munozaraga chorlovchi xarakterda bo'lishini ma'qul ko'rishar ekan<sup>27</sup>.

### **Darsliklarning o'quvchilarga taqsimlanish shart-sharoitlari**

---

<sup>24</sup> Braga Garcia, Tânia Maria. 2014. Criteria used by Teachers in Brazilian Public Elementary Schools in the Process of Textbook Selection. *Orbis Scholae* 8 (2), 9-23

<sup>25</sup> Sikorova, Z. 2002. Evaluating Textbooks as Teacher's Activity. In Mikk, J., Meisalo, V., Kukemelk, H., Horsley, M. *Learning and Educational Media* Tartu: University of Tartu, 84-92.

<sup>26</sup> Jesús Rodríguez Rodríguez, Tânia Braga Garcia, Eric Bruillard. IARTEM (International Association for Research on Textbooks and Educational Media) 1991-2016. 25YEARS DEVELOPING TEXTBOOK AND EDUCATIONAL MEDIA RESEARCH. France -2019. 103 -410.

<sup>27</sup> Exarhos, Ionnis 2005. Greek primary teachers' preferences for and characteristics of science textbooks. In: Eric Bruillard, Bente Aamotsbakken, Susanne V. Knudsen & Mike Horsley: *Caught in the Web or Lost in the Textbook?* Caen: IARTEM/STEF/IUFM

1. O‘quvchilar darsliklar bilan bepul ta‘minlanadimi? Agar bepul bo‘lsa, ular barcha o‘quvchilar uchunmi yoki ma‘lum bir toifa vakillari uchunmi? Bepul darsliklar ta‘minoti bilan kim shug‘ullanadi?

2. Bepul tarqatilgan darsliklar o‘quvchilar ixtiyorida qoladimi yoki ijara asosida foydalaniladimi?

3. Har bir o‘quvchi uchun alohida kitob beriladimi? Agar bunda biror mezon yo‘q bo‘lsa, unda bepul tarqatiladigan darsliklar soni va sinfdagi o‘quvchilar miqdori orasida qanday proporsiya mavjud bo‘lishi kerak?

4. Darsliklar ijarasi narxini belgilovchi huquqiy mezon bormi? Ular qanday mezonlar?

O‘rganish uchun olingan davlatlarning taxminan, 50 foizida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari darsliklar bilan bepul ta‘minlanadi. Uchdan ikki qismida ijara tizimi asosida va bir qismida esa o‘quvchilar darsliklarni o‘z hisobidan sotib oladi. Narxlar markaziy hukumat tomonidan belgilanadi. Ba‘zi davlatlarda esa narxlarning belgilanishi viloyat, tuman va mahalliy hukumat tomonidan nazorat qilinadi.

Va yana bir eng og‘riqli savollardan biri bu – har bir o‘quvchi uchun alohida kitob beriladimi? Og‘riqli deganimning sababi bor, albatta. 2015-yil UNESCOning Xalqaro Ta‘lim Monitoringi Hisoboti<sup>28</sup> e‘lon qildi. Unda shunday deyilgan: “ushbu yilda Jahon banki tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, kam daromadli davlatlardagi ta‘lim iqtisodchilari mablag‘ tejash maqsadida talabalarga yetkazib beriladigan darsliklar sonini 1:2 nisbatdan 1:3 nisbatga kamaytirishi natijasida ta‘lim sifatiga jiddiy putur yetkazilgan”. Keling, ushbu vaziyatni raqamlarda tahlil qilib ko‘ramiz. Agar A shaharning darslikka muhtoj qatlami 12000 nafarni tashkil qilsa va darsliklar bir darslikdan ikki yoki uch kishi foydalanadigan usulda taqsimlansa, ushbu holat yuz berishi mumkin. (2-jadval. Ilovaga qaralsin)

---

<sup>28</sup>UNESCO 2016. *Every Child Should Have A Textbook* Policy Paper 23. Global Education Monitoring Report. Paris, France.

Endi masalaning boshqa bir jihatiga e'tiboringizni qaratsak. Arzimagan 6, 8mln. iqtisodiy zarar haqida gapirilyapti-yu, lekin necha minglab o'quvchilarning darsliklardan yetarlicha foydalana olmasligi natijasida kelib chiqadigan ta'limiy zarar haqida gapirilmayapti. Tasavvur qiling, agar darsliklar 2 yoki 3 kishi birgalikda foydalanishi uchun yetadigan miqdorda bo'lsa, unda bitta o'quvchiga kitob o'qish navbati uch kunda bir keladi. Bu esa o'sha o'quvchining 2 kun kitobsiz qolishini bildiradi. Menimcha, bunday zararni hech qanday iqtisodiy zarar bilan taqqoslab bo'lmaydi.

Fillipinda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, agar darslik maktab mulki bo'lib, u uyga olib ketilmasa, u kitobni bitta o'quvchi ishlatadimi yoki ikkita o'quvchi ishlatadimi, ular oralaridagi tafovut uncha katta miqdorni tashkil qilmaydi. Ba'zi ekspertlar hatto bunday sharoitda bir kitobni uch kishi ishlatishlari ham qoniqarli holat deya baholashadi<sup>29</sup>. Maqola so'nggida shunday xulosa qilingan: "Darslik qancha ko'p bo'lsa, ta'lim tizimi uchun shuncha yaxshi"<sup>30</sup>.

Dunyo mamlakatlari ta'lim tizimini o'rganar ekanmiz, faqat o'zimizdagi kamchiliklarni sanayvermay, ba'zi davlatlardan bu sohadagi ustun jihatlarimiz ham borligini aytib o'tishimiz darkor. Ta'lim muassasalarimizning moddiy-texnik bazasi kundan kunga yaxshilanib borayotgani, buning natijasida O'zbekistonda har bir ta'lim oluvchiga yetarli miqdorda darslik yetkazib bera oladigan kuchli iqtisodga ega ta'lim tizimi yaratilayotganini faxr bilan ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligida bunday muammolar hali ham uchrab tursa-da, maktablarimizning bu masala bo'yicha kerakli yechimlarga erishgani biz uchun quvonarli holdir. Tez orada O'zbekistondagi barcha ta'lim muassasalarida adabiyotlar yetishmovchiligi masalasi o'zining ijobiy yechimini topishiga ishonamiz. Buning uchun O'zbekistonning hech bir davlatdan qolishmaydigan iqtisodiy imkoniyatlarga ega ekanligi kafolotdir. Chunki, o'z

---

<sup>29</sup>Brunswic and Hajjar, *Planning textbook development for primary education in Africa* (1992)

<sup>30</sup>Birger Fredriksen et al, *Getting Textbooks to Every Child in Sub-Saharan Africa* (World Bank, 2015)

mablag‘larimizni jondan aziz farzandlarimizning kelajagi uchun sarflashdan ortiq yana qanday zaruriy ehtiyojimiz bo‘lishi mumkin?!

Shu o‘rinda, O‘zbekistonda mavjud bo‘lgan o‘quvchilarni darsliklar bilan ta‘minlash bo‘yicha hukumat qarorlariga ham e‘tibor qaratsak. Har yili O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi yangi o‘quv yilida umumta‘lim maktablarining 1-sinlarini, kam ta‘minlangan oliy farzandlarini bepul hamda qolgan o‘quvchilarni ijara tizimi asosida darsliklar bilan ta‘minlanishi uchun alohida sa‘y harakatlar olib boradi.

Adliya vazirligi maktablarda kimlar darsliklar bilan bepul ta‘minlanishi haqida ma‘lumot berdi: “Birinchii sinf, “Mehribonlik” uyi, maxsus maktab, maktab-internatlari va ijtimoiy yordamga muhtoj oilalar o‘quvchilari maktabning kutubxona jamg‘armasi tomonidan darsliklar to‘plami bilan bepul ta‘minlanadi”.

Bunda ijtimoiy yordamga muhtoj oilalar ro‘yxati 1-sentyabrgacha fuqarolar yig‘ini iltimosnomasi va ota-onalar qo‘mitasi xulosasi asosida maktabning pedagogik kengashi tomonidan tasdiqlanadi<sup>31</sup>.

### **Utilizatsiya**

1. Darsliklardan ehtiyotkorona foydalanish tartibi mavjudmi? Darsliklar muayyan ilmiy-madaniy ishlar jamlanmasi sifatida foydalaniladimi yoki shunchaki matnlar to‘plami sifatidami?

2. Sinflarda o‘quvchilarning mustaqil izlanishi va rivojlanishi uchun darsliklarga qo‘shimcha tarzda boshqa o‘quv qo‘llanmalari mavjudmi? Agar mavjud bo‘lsa, ushbu to‘plam qanday shakllantiriladi?

3. O‘qituvchilar kitobi mavjudmi?

4. O‘g‘il va qiz bolalar uchun darsliklar alohidami?

Darsliklardan foydalanish tartibi

Yuqoridagi o‘tkazilgan konferensiya materiallaridan shuni xulosa qilish mumkinki, boshlang‘ich sinf darsliklari yaratish masalasi har davrning va har bir davlatning e‘tibor qaratilishi kerak bo‘lgan eng dolzarb masalalaridan biridir. Bu

---

<sup>31</sup> <https://www.zarnewsuz.com>.

yerda darslik yaratishga qo'yilgan eng asosiy mezonlar ko'rsatilgan bo'lib, darslik muvaffaqiyatini ta'minlagan boshqa jihatlar har bir davlatning o'z imkoniyat va xususiyatlaridan kelib chiqadi.

## **2.2. Rossiya ta'lim tizimida amalda bo'lgan boshlang'ich sinf darsliklarining qiyosiy tahlili (1-sinf o'qish darsligi misolida)**

Xalqaro tajribada darsliklar yaratish tizimini o'rganar ekanmiz, tadqiqotni avvalo, Rossiya ta'lim tizimida amalda bo'lgan boshlang'ich sinf darsliklaridan boshlash kerak, degan qarorga keldik. Bunga bir qator omillar bor, albatta. Tadqiqotimiz yuzasidan beriladigan eng ko'p savol "Nega aynan Rossiyaniki?" degan savol bo'lishi mumkinligini anglagan holda, quyida ushbu tanlov sabablariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Xalqaro taribada sifatli darslik yaratish metodikasi bo'yicha Rossiya ta'lim tizimidan ham yuqori turuvchi ta'lim tizimlari ham bor. Masalan, Finlandiya, Amerika, Yaponiya... Lekin ularning ta'lim tizimi bosqichlari va o'quv dasturlari biznikidan tubdan farq qiladi. Izlanish olib borish uchun, nimanidir o'rganish uchun eng yaxshi usul bu – o'rganilayotgan predmetlar va voqea-hodisalarni bir-biriga qiyoslash va zidlash ekanligini bilgan holda, biz o'rganish obyekti sifatida ta'lim tizimimizga, o'quv dasturlarimizga yaqin bo'lgan davlatlarning darsliklarini tanlashimiz shart edi. Bu jihatdan Rossiya tanlovi eng maqbul tanlov edi.

Yuqorida nomi ko'rsatilgan davlatlarning ta'lim tizimi esa, xususan, boshlang'ich ta'lim tizimi bosqichlari, o'quv soatlari, fanlar taqsimoti va undagi mavzular ko'lami biznikidan mutlaqo farq qiladi.

Qolaversa, AQSH, Buyuk Britaniya va yana bir qator Yevropa davlatlaridagi boshlang'ich sinf darsliklarining tadqiqot obyekti bo'lish uchun juda ko'plik qilishi ham bosh omillardan biridir. Chunki u davlatlarda, bizga 2020-2021-o'quv yilidan joriy etilishi ko'zda tutilayotgan muqobil darsliklardan foydalanish tizimi allaqachon amalda. Bir fan yuzasidan davlat tomonidan bir nechta darslikning tasdiqlangani va xuddi bu darsliklar ham qoniqtirmagandek, ba'zi davlatlarda har bir xususiy maktabning o'z darsligiga egaligi mazkur davlat

darsliklarini o'rganishni maqsad qilgan tadqiqotchini davlat darsligi sifatida qaysi darslikni tanlab olish yuzasidan aniq bir qarorga kela olmasligiga olib keladi.

Keyingi navbatda, albatta, sovet ittifoqi davri va uning O'zbekiston ta'lim tizimiga ta'siri masalasi o'rin oladi. Xohlaymizmi, yo'qmi, bizning ta'lim tizimimiz ham shu daryo suvlari bilan sug'orilgan. Buni ta'lim tizimlarimizdagi o'xshashliklar bilan izohlashimiz mumkin.

O'tgan asrlarda Rossiya davlatining bir qancha davlatlar ustidan hukmronlik o'rnatgani va hududi jihatdan ham dunyoda birinchilar qatorida turishini inobatga olsak, davlatning ham moddiy, ham ma'naviy-intellektual boyliklari jihatidan uncha-muncha davlatlardan qolishmaydigan zaxirasi borligiga guvoh bo'lamiz. Bu boyliklar shu vaqtga qadar Rossiyani har tomonlama rivojlanishiga va bu rivojlanish omili sifatida baholangan ilm-fan taraqqiyoti uchun ham davlat mablag'larining katta qismi jalb etilganligini ko'rishimiz mumkin.

Shu kabi omillar va bugungi kunda Rossiya ta'lim tizimida amalda bo'lgan darsliklar bilan qisman tanishib chiqqan holda, ushbu darsliklarda o'rganishga arzigulik tajriba bor deb topdik va bu tajribalarni 1-sinf o'qish darsliklari bilan qiyoslagan holda bayon etdik.

Ma'lumki, milliy ta'lim tizimimizda boshlang'ich sinf o'qish darslari 1-sinfning 3-choragidan, ya'ni, savod o'rgatish davri tugagach o'tilishi va ushbu dars mashg'ulotlari hajmi 68 soatni tashkil qilishi belgilab qo'yilgan. Shundan 62 soati darslikda berilgan materiallarni o'rganish uchun, 6 soati esa nazorat ishlari va ularning tahlili uchun ajratilgan. Ruslarda esa 1-sinfda o'tiladigan o'qish darslari uchun bor-yo'g'i 40 soat ajratilgan. Ajratilgan dars soatlari hajm jihatdan kattaligi bizning yutug'imiz, albatta. Lekin bu yerda sifat va miqdor mutanosibligiga ham alohida e'tibor qaratish lozim.

Rus darsliklarini o'rganganingizda 40 soat uchun mo'ljallangan materiallar sifat va miqdor jihatdan biznikidan sezilarli darajada farq qilishiga guvoh bo'lasiz. Ruslarda o'qish darslari "Литературное чтение" – "Adabiy o'qish" deb

nomlanadi va darslik 40 soatga mo'ljallangan bo'lishiga qaramay, 2 qismli hamda badiiy jihatdan yuksak did bilan ishlab chiqilgan. 1-sinf O'qish darsligi bir qism, 9 bo'lim, 128 betdan iborat. Rus darsliklari esa ikki qism, 7 ta bo'lim va har bir qismda 80 sahifa, jami 160 sahifadan iborat. Qolaversa, beriladigan materiallar mazmun jihatdan biznikidan anchayin farq qiladi. (3-jadval. Ilovaga qaralsin)

Darslikning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri bu – har bir bo'lim boshida aniq maqsadning qo'yilishi va darslikda shuncha materiallar berilishiga qaramay, o'qish uchun yana uchtadan qo'shimcha adabiyotning tavsiya qilib borilishidir. Darslikdagi bo'lim boshida uchraydigan bunday maqsad va vazifalar bu bo'limda o'qituvchi nimani o'qitishi, o'quvchi esa nimani o'rganishi kerakligiga ishora qiladi. Masalan, “Сказки, загадки, небылицы”<sup>32</sup> bo'limida quyidagicha vazifalar qo'yilgan:

**BIZ TANISHAMIZ:**

- xalq ertaklari va yozuvchilar tomonidan yaratilgan ertaklar.

**BIZ O'RGANAMIZ:**

- So'zni o'qish, urg'uli bo'g'inni to'g'ri ajratish.

**BIZ O'RGATAMIZ:**

- Voqealarni bo'limlarga ajratish;
- Bir mavzu doirasidagi turli xil asarlarni taqqoslash.

Bu vazifa yuqorida aytib o'tganimizdek, ham o'qituvchilar, ham o'quvchilar uchun birdek foydali bo'ladi. Bo'lim boshida nimani o'rganish va o'rgatish kerakligini aniqlashtirib olgan ta'lim jarayoni ishtirokchilari bo'limda berilgan asarlarni o'qish jarayonida ham ushbu yo'nalish bo'yicha o'qiydilar, o'rgatadilar. Qolaversa, bu yo'nalishning belgilanishi ta'limdan ko'zlangan maqsadning yoddan chiqmasligi va ularni bajarilishiga odatdagidan ham ko'proq e'tibor berilishini ifodalaydi. Yana shuni ham ta'kidlash joizki, ushbu darslik foydalanuvchilarida bo'lim yakunlangandan keyin ham, o'z o'rganganlarini

---

<sup>32</sup> Климанова Л. Ф., Горецкий В. Г., Голованова М. В. и др. Литературное чтение. 1 класс. В 2 ч. Ч. 2. – Москва: Просвещение, 2012. – С 30.

darslikdagi ushbu bo‘limdan o‘rganilishi ko‘zda tutilgan vazifalar bilan taqqoslash va o‘z yutuq hamda kamchiliklaridan xabardor bo‘lish imkoniyati ham bor.

Rus darsliklarini tahlil qilar ekanmiz, ularda amaliyot va nazariyot birgalikda olib borilishiga guvoh bo‘lamiz. Shu bo‘lim boshida yuqoridagi maqsaddan so‘ng berilgan ertaklar xususidagi ajoyib tushuntirish ham o‘quvchilarning bolalar adabiyotida eng ommabop janrlardan biri bo‘lgan ertaklar, xalq ertaklari, mualliflar tomonidan yozilgan ertaklar kabi, bir qarashda ilmiy bo‘lgan adabiy tushunchalarning bolalar tilida bayon etilgan eng sodda qoidasi bo‘la oladi. Unda dastlab dialog asosida ertaklar nima ekanligi tushuntirilgan va quyiroqda ta’rifi berilgan. Keyin esa, ta’rifdan so‘ng berilgan savol va topshiriqlarda mustaqil o‘qish uchun tavsiya qilingan qo‘shimcha adabiyotlar rasmiga qarab, ularning qaysi biri xalq ertagi, qaysi biri yozuvchi tomonidan yozilgan ertak ekanligi so‘ralgan. Rasmlarda “Rus xalq ertaklari”, Samuel Marshakning “Тепемок” nomli asari va “Jahon xalq ertaklari” kitoblarining muqovasi keltirilgan. Ushbu oddiy misol yordamida o‘quvchilar osongina ertaklarning qaysi guruhga mansub ekanligini ajratib oladi va o‘qituvchisi yordamida bu boradagi fikrlarini aniqlashtiradi. Ko‘rib o‘tganimiz, “misoldan qoidaga” metodi ham darsliklarning metodik jihatdan kuchli bo‘lishiga xizmat qilgan eng asosiy omillardan biridir.

Mavzuga doir qo‘shimcha adabiyotlar tavsiya qilish an’anasi ham o‘rgansa arzigulik jihatlardandir. Mualliflar jamoasi ushbu bo‘lim mohiyatini o‘quvchilar yaxshiroq anglashlarini shunchalik xohlashganki, o‘zlari darslikka kiritgan materiallar bu borada kamlik qilishini hisobga olib, o‘quvchilarning faqat darslik bilan chegaralanib qolmay, boshqa adabiyotlarni o‘rganishlari uchun ham yo‘l bergan. Adabiyotlar tavsiyasi uchun har bo‘limda alohida joy va eng sara kitoblarni taqdim etilishi bu – o‘quvchilarning kamoloti uchun har bir ijodkor hamkorlikda ishlashidan ham dalolat beradi. (4-rasm. Ilovaga qaralsin)

Ularning maqsadi faqat o‘z mahsulotlarini monopoliyalashtirish emas, o‘quvchilarning qaysi kitobni o‘qib bo‘lsa-da, mukammal ta’lim olishlaridir!

Agar biz ham shunday an’analarni o‘zimizda qo‘llab ko‘rsak, faqat darslik bilan chegaralanib qolmay, o‘quvchilarimizda aniq maqsad asosida harakat qilish va mustaqil mutolaa qilish ko‘nikmasini ham rivojlantirgan bo‘lar edik.

Aslini olganda, gap faqat materiallarning ko‘pligida ham emas. Bu bilan rus darsliklari faqat “beradi” deb o‘ylash noto‘g‘ri. Chunki, ularda asosiy e’tibor o‘quvchining dunyoqarashini kengaytirish va mustaqil fikrlashiga qaratilgan. Har bir mavzuga doir tuzilgan savol va topshiriqlarning rang-barangligi va son jihatdan biznikidan ustunligi masalaning biz e’tibor berishimiz kerak bo‘lgan eng muhim jihatlaridan biri. U yerdagi savollar faqat asar voqeasi asosida emas, balki, o‘quvchining bu voqeaga bo‘lgan shaxsiy munosabatini talab qiladigan, ularni o‘ylashga, fikrlashga o‘rgatadigan, tanqidiy tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladigan, bir so‘z bilan aytganda, yuqori saviyada tuzilgan savollardir.

Sikorova o‘tkazgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, yaxshi darslik bu – yetarli va rang-barang savollarga ega bo‘lgan darslik. Darslikning sifati unda berilgan savollarga bog‘liqligi bejizga emas! Bunday savollar ustida ishlash orqali o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, mustaqil qaror chiqarish va xulosa qila olish ko‘nikmalarini oshirish, shuningdek, og‘zaki va yozma nutqining ravon bo‘lishiga ham erishish mumkin.

Darslikda berilgan savol va topshiriqlar shartli belgilar asosida 4 guruhga bo‘linadi:

- 1) daftarda ishlanadigan;
- 2) juftlikda ishlanadigan;
- 3) guruhda ishlanadigan;
- 4) murakkablashtirilgan.

Bundan tashqari shartli belgi qo‘yilmagan savol va topshiriqlar ham ancha-munchani tashkil qiladi. (4-jadval. Ilovaga qaralsin)

Demak, 1-sinf “Литературное чтение” darsligiga jami 264 ta savol va topshiriqlar kiritilgan.

Ushbu tahlilni amalga oshirib bo‘lgach, bevosita o‘z darsliklarimizda bu holat qanday ekanligiga qiziqdik. (5-jadval. Ilovaga qaralsin)

Yuqorida mavzu yuzasidan berilgan materiallarning son va hajm jihatdan kamligi savollarga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatgan. Buni 141 sonining 264 sonidan deyarli ikki barobar kichikligidan ham bilish mumkin. Agar rus darsliklariga kiritilgan savollarni ular tartiblagan sonlar orqali emas, har birini alohida alohida hisoblasak, bu savollar miqdori 1000 ga yetadi.

Bu hali hammasi emas. Biz hali savollarning mazmuni, saviyasi haqida gapirmadik. O‘qish kitobiga kiritilgan savollar xususidagi ayrim e‘tirozlarimizni aniq misollar orqali bayon etamiz:

1. Savollarning ko‘p qismi judayam sodda, hatto, bog‘cha bolasi ham o‘ylanmay javob bera oladigan qilib tuzilgan:

– Qor yog‘ganda tabiat qanday tusga kiradi?<sup>33</sup>

Butun boshli she‘r berilgan bo‘lsa-yu, savollarga kelganda bitta shu savolgina so‘ralsa, bu judayam achinarli hol. Bu she‘r yuzasidan adabiy tushunchalarni o‘rgatishga yo‘naltirilgan savollar bersa ham maqsadga muvofiq bo‘lardi. “Литературное чтение”<sup>34</sup> da hatto qofiya tushuntirilib, ta‘rifi berilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bizda bo‘lsa, biror adabiy tushuncha yoritilmagan. Savollar mazmuni “U kim?”, “bu nima?” tipida bo‘lib, asar mazmuni xususida bo‘lsin, to‘liq yoritishga xizmat qilmagan.

2. Qaytarilgan savollar:

- Qish fasli sizga nimasi bilan yoqadi (15-, 21-betlar)
- Alisher Navoiy haqida nimalarni bilib oldingiz? (27-, 34-betlar)
- Bobur Mirzo haqida nimalarni bilib oldingiz? (30-, 34-betlar)
- Mirzo Ulug‘bek kim bo‘lgan? (29-, 34-betlar)

---

<sup>33</sup> O‘sha kitob. 17-bet.

<sup>34</sup> Климанова Л. Ф., Горецкий В. Г., Голованова М. В. и др. Литературное чтение. 1 класс. В 2 ч. Ч. 2. – Москва: Просвещение, 2012. – С 17.

– Siz oromgohda bo‘lganmisiz? (90-, 93-betlar)

Hattoki, o‘quvchilar uchun xususiy nashriyotlar, yakka mualliflar tomonidan chiqarilgan savol va topshiriqlar kitobida ham bunday holatga duch kelmaysiz. Bizningcha, mualliflar jamoasi bu darslik auditoriyasi qanchalik katta ekanligini, bu darslik O‘zbekiston bo‘yicha yagona 1-sinf “O‘qish kitobi” ekanligini, O‘zbekistonning, ta’lim tizimimizning yuzi ekanligini va bu borada ularga bildirilgan davlatimizning, xalqimizning ishonchi naqadar yuksakligini his qilmayotganga o‘xshaydi.

### 3. Mantiqsiz savollar:

– Navro‘zda tabiatda qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ladi? (43-bet)

Bu savolni mantiqsiz deya nomlashimiz biroz qo‘pol tuyulsa-da, bunga arzirli izohimiz bor. Kitobning 35-betida “Bahorda tabiatda qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ladi?” degan savol keltirilgan. So‘ngra savol tuzishga eringan mualliflar jamoasi 43-betga kelganda “Bahor” so‘zini “Navro‘z” so‘ziga almashtirib qo‘ya qolishgan. Aslida Navro‘z bu – bayram nomi-ku! Bu bayram 21-martda nishonlanadi va nom ko‘chish asosida ishlatilgan taqdirda ham, shu birgina kuni – Navro‘z bayrami nishonlanadigan kunnigina ifodalaydi. Endi o‘ylab ko‘ring. Shu savol to‘g‘rimi? Bu xuddi “Tug‘ilgan kuningda tabiatda qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ladi” degan gapdek kulgili emasmi?!

Savol va topshiriqlar yuzasidan darslik mualliflariga yana bir e‘tirozimiz bor. Rossiya darsliklarida har bir matn, mavzu yuzasidan eng kami 3 yoki 4 ta savol berilayotgan bir paytda, bizning darsliklarda eng ko‘pi bilan 3 yoki 4 ta savol berilayotganini nima bilan izohlash mumkin? U ham mayli, darslikka kiritilgan 21 ta asar yuzasidan umuman savol va topshiriq berilmagani-chi?

Asarlar matni yuzasidan tuzilgan: «Nima uchun ona yer deymiz? Javobni matndan topib o‘qing va o‘qiganingizni yod oling», «Navoiyning istagi ifodalangan misralarni o‘qing», «Yakshanba kuni qanday voqea yuz berdi?», «Ota-ona o‘z farzandiga nisbatan qanday iborani ishlatadi?» kabi savol-topshiriqlar bolaning matn mazmunini takrorlashiga xizmat qiladi, xolos. «Asar

mazmunidan nimalami tushundingiz?», «... deganda nimani tasavvur qilasiz?», «Nima deb o'ylaysiz, Shiroq nega qo'yini boqib yuravermay qabila boshliqlarining oldiga keldi? Uni bunga undagan narsa nima ekanini ayta olasizmi?», «...tarzidagi tasvirni o'z so'zlaringiz bilan ifodalashga urinib ko'ring. Uni siz qanday tushundingiz?» singari kichik o'quvchilarni fikrlash va matn mohiyatiga kirishga yo'naltiradigan, asardan badiiy zavq va ma'naviy ozuqa olishga undaydigan, o'z qarashlarini aytishga qaratilgan savol-topshiriqlar mutlaqo uchramaydi.

Matn yuzasidan tuzilgan mantiqli, o'ylantiradigan savollarga sinfdagi o'quvchilarning barchasi javob berishi shart emas. Muhimi, savol bilan ularni bezovta qilish. Agar o'qituvchi kichik o'quvchilarni matn ustida uzluksiz ravishda shunday ishlataversa, bolalar bunga o'rganib boradilar va ularda istalgan ko'nikma hosil bo'ladi. Natijada bola fikr kishisi bo'lib yetishadi.

Darslikning bezatilishi, undagi rasmlarning o'quvchilar diqqatini torta oladigan qilib tanlangani, keltirilgan suratlarning hajm, unda ishlatilgan ranglar va sifat jihatdan o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos ekanligi hamda badiiy jihatdan puxta ishlangani tahsinga sazovordir (5-rasm. Ilovaga qaralsin). Darslikka kiritilgan hech bir rasm shunchaki ishlanmagan, aniqrog'i tayyor rasmlardan foydalanilmagan. Bu rasmlarni ko'rganingizda, darslikning grafik jihatdan ham mukammal ishlanganligiga o'zingiz ham guvoh bo'lasiz. Rasmlar bolalarning ijodiy tafakkurini shakllantiradi va ularni badiiy-estetik jihatdan tarbiyalab, asl san'atni qadrlashga o'rgatadi.

Darslikni varoqlar ekansiz, undagi cheksizlikni his qilasiz. Cheksizlik nima uchun kerak? Cheksizlik cheksiz fikrlar va cheksiz tasavvurlar uchun kerak!

Yana bir jihat bu – jonlilik! Darslik grafikasi ustida shunday mukammal ishlanganki, ularga qarab, beixtiyor o'sha tasvirlangan predmet, voqea-hodisa ko'z oldingizda gavdalanadi. Bu ayniqsa, reallikdan yiroq bo'lgan – ertaklar, rivoyatlar va umuman barcha turdagi badiiy asarlarni yaxshiroq his qilish uchun kerak.

Yosh avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalashning eng asosiy shartlaridan biri bu – ularning tasavvur va dunyoqarashlarini kengaytirishdir. Qolgan barcha bilimlarni keyin ham o‘rgansa bo‘ladi. Qolaversa, bu ularni kelgusidagi bilimlarni tezroq va yaxshiroq o‘zlashtirishlari uchun foyda bo‘ladi. Ayniqsa asosan, tasavvur va dunyoqarash kengligiga bog‘liq bo‘lgan fanlar: adabiyot, chizmachilik, loyihalash, dizayn, siyosatshunoslik, tabiiy fanlar, falsafa va yana shu kabi fanlarni o‘rganishda ahamiyatli.

Bundan tashqari, rasm bilan o‘quvchilarning darslikka bo‘lgan qiziqishini ham oshirish mumkin. Bolalar ko‘proq, yorqin ranglardan foydalanilgan, jonli tarzda qo‘lda chizilgan, atrofi chegaralanmagan va hajm jihatdan kattaroq bo‘lgan rasmlari kitoblarni xohlaydi, hatto kattalar ham bunday kitoblarga qiziqish bildiradi.

Yana bir darsliklarimizda uchraydigan eng katta kamchilik bu – darsliklar grafikasi ustida ishlashda tayyor rasmlardan foydalanish an‘anasining mavjudligidir. Rassomchilik va dizayn sohasida ish olib borayotgan qanchadan qancha san‘at kollejlari, oliy o‘quv yurtlari bor? Shu dargohlarni tamomlab, ish izlab yurgan yetuk kadrlar qancha?! Shularni agar ushbu sohaga jalb qilsa, bilasizmi darsliklarimiz qanchalar go‘zallashadi?! O‘zbekistonning eng mashhur rassomlari Ortig‘ali Qozoqov, Akmal Nur kabi ijodkorlardan ushbu darsliklar uchun rasm ishlab berilishi so‘ralsa, o‘ylaymanki, ular hech qachon yo‘q demaydi. Aksincha, bundan ularning boshi ko‘kka yetadi. Axir ular ham chizgan rasmlarini Xalqaro ko‘rgazma zallarining eng peshtoqiga qo‘yilib, olqishlangandan ko‘ra, butun O‘zbekiston bo‘yicha yagona bo‘lgan, o‘z farzandlari, nabiralari, o‘z xalqi foydalanadigan darslik sahifalarida ko‘rishni afzal ko‘rishadi desak, o‘ylaymizki, yanglishmagan bo‘lamiz.

Bu kabi darslikning grafik jihatiga alohida urg‘u beradigan, rasmlar orqali ham ta‘lim va tarbiya berish mumkin degan g‘oyani ilgari suradigan davlatlar qatori faqat Rossiya bilan tugamaydi. Yaponiya darsliklarida ham bu jihat yaqqol ko‘zga tashlanadi. (6-rasm. Ilovaga qaralsin.)

Bu darslik endigina “Alifbe”ni tugatgan o‘quvchilar uchun juda ham samarali bo‘lib, unda nafaqat ona tili, balki boshqa fanlar bilan o‘zaro integratsiyani ko‘rishimiz mumkin.

Dastlabki bo‘limlarning harflarga bag‘ishlanishi va unda faqat tovush va harflar haqida she’r, hikoya, ertak kabi turli xil janrlardagi asarlarning berilishi o‘quvchilarning ona tili darslarini yaxshi o‘zlashtirishlari va til hodisalarini yaxshiroq tushunishlariga yordam beradi. Xususan, alifbo tartibida joylashtirilgan harflar bilan boshlanuvchi she’r, yoki unli va undosh tovushlarni farqlashni o‘rgatuvchi “Почему «А» поётся, а «Б» нет” she’rini misol qilishimiz mumkin. “Про Медведя” she’rida esa, unli harflarning talaffuzi va imlosiga oid obrazli tushuntirish bayon etilgan.

S.Marshakning “Автобус номер двадцать шесть” she’ri ham boshqa she’rlardan alifbo tartibida yozilganligi bilan ajralib turadi. Undagi har bir qator alifbo tartibidagi harflardan boshlangan bo‘lib, u harflar qizil rang bilan ajratilgan va beixtiyor o‘quvchida shu she’rni o‘qishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

“Разноцветные страницы” (7-rasm. Povaga qaralsin.) sahifasida berilgan T.Pavlovaning she’ri, yosh bolalarning nega r tovushini ayta olmaslik sababini sodda va tushunarli tilda yoritib bergan. Luninning sh tovushi talaffuziga bag‘ishlangan she’ri esa, o‘quvchilarni tovushlarni aniq va to‘liq talaffuz qilishlariga yordam beradi.

Umuman olganda, butun boshli “Жили были буквы” bo‘limi shunday asarlarni o‘zida jamlagan bo‘lib, ular jami 11 ta she’r, 1 ta hikoya va bir nechta alifbo saboqlariga doir turlicha qiziqarli o‘yin va topshiriqlardan iborat. Shuningdek, bu mavzulardagi rang-barang asarlarning berilishi rus bolalar adabiyotining naqadar boy ekanligidan ham dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu darslik mualliflari bo‘limga kiritilgan she’rlarni shunday mohirlik bilan tanlaganki, ularni o‘qigan o‘quvchi o‘zini bevosita harflarning sehrli olamiga tushib qolganday his qiladi va o‘ylaymanki, buning

natijasi o‘laroq, o‘quvchilar alifbo va harflarga, ulardagi til hodisalarini yaxshiroq tushunadi va ularni o‘rganishga qiziqishi yanada ortadi.

Mualliflar jamoasi darslik o‘quvchilarning “qo‘ldan qo‘ymay o‘qiydigan” sevimli kitobiga aylanishi uchun unga bolalar jurnallariga xos sahifalarni ham kiritgan: “Разноцветные страницы”, “Наши проекты”<sup>35</sup> kabi loyihalar bunga misol bo‘lishi mumkin.

---

<sup>35</sup> Климанова Л. Ф., Горецкий В. Г., Голованова М. В. и др. Литературное чтение. 1 класс. В 2 ч. Ч. 2. – Москва: Просвещение, 2012. – 80 с.

## **II BOB YUZASIDAN XULOSALAR**

Xalqaro tajribada boshlang'ich sinf darsliklari yaratish masalasi bugungi kunda darsliklar tizimini isloh qilishni maqsad qilgan har bir davlatning va har bir mutaxassisning o'rganishi zarur va shu bilan birga o'rganilish ko'lami keng bo'lgan mavzulardandir.

Milliy darslik yaratish tizimimizni yanada rivojlantirish omillaridan biri bo'lgan xalqaro tajribalarni o'rganish orqali biz o'zimiz uchun kerakli bo'lgan bir nechta zaruriy bilimlarga ega bo'ldik.

Xususan, darsliklar bu nafaqat bilim berish vositasi, balki, har bir millatning o'ziga xosligini, milliyligini aks ettirib turuvchi ko'zgusi, tarbiya yo'lidir. Nashrga tayyorlanishidan tortib, undan foydalanish jarayonigacha bo'lgan oraliq va bu oraliqda har bir mutasaddining sidqidildan mas'uliyat bilan ishlashi sifatli darslik yaratish masalasining bosh omilidir.

Darsliklarda berilgan materiallarning ko'p va xilma-xilligi, unda foydalanilgan illustratsiyalarning sifati va miqdori darslik yaratish tizimida biz o'rganishimiz kerak bo'lgan jihatlardandir. Qolaversa, darslik yonida, unga yondosh muqobil darsliklar, o'qituvchi kitobi va multimedia ilovalarining bo'lishi ham ta'lim samaradorligini oshiradi.

Dunyo mamlakatlari miqyosida yaratilgan darsliklarni o'rganar ekanmiz, hamma davlat uchun birdek mos bo'lgan, birdek foydalanish uchun tayyor bo'lgan darslik mavjud emasligiga yana bir bor guvoh bo'lamiz. Har bir davlat o'z farzandlari, kelajak davomchilari uchun darslik yaratar ekan, avvalo u darslikda xohlaydimi, yo'qmi o'z davlatigagina xos bo'lgan urf-odat, an'ana, madaniyat, mentalitet va dunyoqarashlarni aks ettiradi. Har bir xalqdagi darslik yaratuvchi mualliflar o'z farzandlarining psixologiyasidan, qiziqishlaridan hamda ularga beriladigan tarbiya usullaridan kelib chiqqan holda, darslik yaratishda o'z mezonlarini ishlab chiqadi. Ba'zi bir davlatlar ko'proq zamonaviylikka, mavzu tushuntirish jarayonida yangicha pedagogik texnologiyalarni qo'llashga ko'proq

e'tibor qaratsa, ba'zi davlatlar o'z darsliklarining umrboqiy bo'lishiga, uni har qanday sharoitdada yashab qoladigan sifatli va eng sara materiallar bilan boyitishga harakat qiladi. Bunday davlatlar qatoriga Yaponiya va Rossiya davlatlarini kiritishimiz mumkin. O'z darsliklariga klassik jihatdan yondashib, ularni zamon chig'iriqlaridan eson-omon o'tishlarini ta'minlab bergan bu davlatlar tajribasi, ko'pgina davlatlar o'rganishi uchun dasturul amal bo'lib xizmat qilmoqda. Zero, ushbu davlatlarning rivojlanish tendensiyalarini o'rganar ekanmiz, ularning taraqqiyotga yetaklagan asosiy faktorlari karvoniga mana shunday boshlang'ich sinf darsliklari boshchilik qilayotganini anglash qiyin ish emas.

### **III BOB: YANGI AVLOD BOSHLANG‘ICH SINIF DARSLIKHLARI YARATISHDA MILLIY VA XALQARO TAJRIBANI UYG‘UNLASHTIRISH MASALASI**

#### **3.1. Yangi avlod boshlang‘ich sinf darsliklari yaratish zarurati**

Ilm-fan dunyo bo‘ylab to‘xtovsiz rivojlanib borar ekan, har bir jamiyat o‘z taraqqiyotini usiz, uning yutuqlarisiz tasavvur eta olmaydi. Ayni mana shu sababmi, so‘nggi yillarda rivojlangan davlatlar budjetidan ilm-fanni qo‘llab-quvvatlashga ajratiladigan mablag‘lar miqdori yildan-yilga ortib bormoqda. Xalqaro YNESKO tashkilotining xabar berishicha, bugunga kelib jahon bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar uchun yiliga 1,7 trillion dollar miqdorida mablag‘ sarflanmoqda, uning 80 foizi 10 ta mamlakat hisobiga to‘g‘ri keladi.

Rivojlangan mamlakatlarning YIM ulushida ushbu sohaga mablag‘ ajratish foizi mazkur davlatlardagi rivojlanish ko‘rsatkichlari bilan to‘g‘ri proporsional ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Jumladan, Koreya Respublikasi ilmiy tadqiqotlar uchun YIMning 4,3 foizini, Isroil 4,2, Yaponiya 3,4, Shveysariya 3,2, Germaniya 2,9, AQSH 2,7 foizini sarflamoqda. Tabiiyki, sohaga kiritilayotgan aktivlar o‘zining mevasini bermay qolmayapti.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ham ilm-fanga e‘tibor bir muncha kuchaygan bo‘lsa-da, lekin juda ko‘p muammolar hali-hanuz o‘z yechimini kutib turibdi. Shu o‘rinda ilm-fan sohasidagi eng muhim jihat – kadrlar masalasiga e‘tibor qaratmay ilojimiz yo‘q. Boisi, ma’lum bir ilmiy doiradagi kadrlarning salohiyatini rivojlantirmay turib, ushbu mintaqadagi ilm-fanning rivojlanishiga erishib bo‘lmaydi. Malakali, kuchli bilimli va zamon bilan hamnafas kadrlarni yetishtirish esa xuddi mana shu yo‘nalishlarda qilinishi kerak bo‘lgan eng muhim qadamlardan biri bo‘lishi darkor. O‘z-o‘zidan, bunday kadrlarni yetishtirib chiqarishda o‘rta umumiy, o‘rta maxsus va oliy ta’limdagi o‘qitish jarayoni bilan bog‘liq har bir jihat bugungi zamon talablaridan kelib chiqqan holda ishlab

chiqilishi, talabga javob bermaydigan tomonlari zudlik bilan qayta isloh qilinishi shart.

Har qanday ilm sohasining egasi o'z yo'nalishidagi dastlabki fundamental bilimlarni aynan darsliklardan oladi.

Xo'sh, bugungi kunda O'zbekistondagi maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalaridagi darsliklar mana shunday zamonaviy talablarga javob bera oladimi? Ularni o'qib o'zlashtirayotgan o'quvchi va talabalar ushbu fanlar, sohalardan kerak bo'ladigan fundamental bilimlarga zamon talablari darajasida ega bo'lmoqdam? Men ta'lim sohasining bir vakili sifatida bu savollarga qoniqarsiz holatdamiz, deb javob qaytargan bo'lar edim.

Maktabda boshlang'ich ta'lim predmetlaridan o'qitiladigan Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan darsliklar haqida umumiy qilib shuni aytish mumkinki, ularning deyarli yarmidan ko'pi yoki o'ta sayoz materiallardan tuzilgan yoki o'ta ilmiylikka berilib, metodikadan uzilib qolgan.

Ta'limning dastlabki boshlang'ich bosqichi o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishda o'qish darslarining o'rni beqiyos. O'qituvchi tomonidan o'qish kitobidagi asarlarni to'g'ri idrok etishga yo'naltirilgan o'quvchi mustaqil ishlashga, uqib o'qishga, o'zgalarning fikrlarini ilg'ashga, o'zi va boshqalarning tuyg'ular olamini kuzatishga va tuyishga o'rgana boradi. Olamni, Odamni va o'zligini kashf qiladi. O'z ichki "men"ining shakllanishida o'zi bevosita ishtirok etadi.

Darsliklar bunday pedagogik vazifalarning bajarilishida eng katta ko'makchi sanaladi. Darsliklarda taqdim etilgan o'quv materiallarining dasturiy talqini ta'lim-tarbiya jarayonidan kutilgan maqsadlarga mutanosib bo'lishi kerak. Afsuski, bugun amalda bo'lgan «O'qish kitobi»ning ko'pchiligi bu talablarga to'la javob berolmaydi. Boshlang'ich sinflar «O'qish kitobi» darsliklarini tuzishda kichik o'quvchilarning ruhiyati, intellektual saviyasi yetarli o'rganilmagan. Aytish kerakki, bugungi boshlang'ich sinf o'quvchilari mualliflar

tasavvur qilganlaridan ko‘ra bilimroq va aqlliroq. «O‘qish kitob»larining umumiy tahliliga tayanib shuni aytish mukinki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida insoniy sifatlarni shakllantirishda bolalarning kuchi, aqli va imkoniyatlaridan unumli foydalanilmayapti.

Darsliklarda o‘rganish uchun taqdim etilgan o‘quv materiallarining ko‘pchiligi jo‘n, hayotiy haqiqatdan uzoq. Bir qismi esa quruq nasihatbozlikka qurilgan. Ular mavzudan kelib chiqib, mualliflar tomonidan shunchaki «to‘qib» tashlanganday.

Darsliklarimizda uchraydigan eng asosiy kamchiliklar sifatida quyidagilarni sanashimiz mumkin:

1) bilimlarni o‘zlashtirishda o‘quvchilarning ishtiroki deyarli ko‘zda tutilmaydi. Ularda o‘quvchilarning vazifasi darslik mualliflarining aytganlarini o‘qituvchi ko‘magida xotirasiga joylab olishdan iborat deb qaraladi;

2) bunday darsliklar tufayli odamlar ongida faqat darslik materiallarini yaxshi esda olib qoladigan, xotirasi yaxshi o‘quvchigina “yaxshi o‘quvchi” degan aqida shakllanib qolgan. O‘rganilganlarni amaliyotda qo‘llashga yo‘naltirish masalasi esa keyingi planda qolib ketgan;

3) bilimlar tayyor holda berilyapti va u faqat o‘quvchilar xotirasini rivojlantirishgagina xizmat qilmoqda. Vaholanki, bugungi pedagogika ilmida o‘quvchilar xotirasini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat maqsadga muvofiq emasligi isbotlangan;

4) darslik mualliflari ko‘p jabhalarda o‘z darsligi orqali o‘quvchilarga faqat bilim berishga harakat qilyapti. Darslikning asosiy vazifasi esa, bilim berish emas, bilim olishga o‘rgatishdir!

5) badiiy asarlardan parcha berish, uni darslik muallifi istaganday tahlil qilish hamda shuni millatning barcha bolalari xotirasiga joylashga urinish, butun avlodni bir xil fikrlaydigan, asar yuzasidan darslik muallifi fikrini qaytaradigan holda tarbiyalashga olib keladi. Darsliklardagi matnlarni idrok etish

mualliflarning qolipiga solinmasligi, tahlilda faqat ularning xulosalariga asoslanilmasligi lozim.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytganda, bilim berish jarayonida bolalarning mustaqilligiga diqqat qilmaslik – tarbiyachining katta xatosi. Zarur bilimlarni mehnat qilib o‘zlashtirishdan ma’naviy ozuqa olish mumkinligi, bu yo‘ldagi mehnat o‘quvchining ehtiyojiga aylanishi uni ma’naviy qaramlikdan qutqarishi bola ongiga singdirilishi kerak. O‘quvchi mehnatini tashkil eta bilmaslik, bolaning o‘zini bilim olish yo‘lida ishlata olmaslik darslik muallifining ham, o‘qituvchining ham kechirib bo‘lmaydigan xatosi hisoblanadi.

Matematika darsliklari esa o‘ta murakkablashib ketgan. Ikki yil oldingi 2-sinfda o‘tiladigan mavzu 1-sinf rejasiga kiritilgan. “Kasr” mavzusi ham 3-sinfdan o‘qitila boshlandi. Shu va shu kabi darslikning murakkablashuviga sabab bo‘lgan boshqa jihatlar tufayli o‘quvchilarda matematika fanidan o‘zlashtirish darajasi tushib ketyapti.

Amaldagi ona tili darsliklari ham kamchiliklardan holi emas. Darsliklarda takrorlar juda ko‘p. Masalan, Aa, Oo, Ii va Uu unlilarining talaffuzi va imlosi 1-, 2-, 3-, 4-, 5- sinflarning har birida berilgan. Bola 5 yil bitta shu mavzuni takrorlaydi. Tutuq belgisi, undoshlar talaffuzi va imlosida ham shu holatni kuzatish mumkin. Darslikni yaratgan olimlar o‘z nuqtayi nazaridan kelib chiqib, ya’ni bola uchun talabni o‘ta yuqori qo‘yib, faqat nazariya bilan cheklanib qolishgan. Darsliklarda bolani mustaqil ijodiy fikrlashga va og‘zaki nutqini o‘stirishga undaydigan, tafakkurini kengaytirishga xizmat qiladigan topshiriqlar deyarli berilmagan. Qolaversa, darsliklarda qoida o‘qitilib, ortidan misol berib ketilaveradi. Bu — noto‘g‘ri. Misoldan qonuniyat yaratish kerak. Darsliklarda bu hisobga olinmaydi. Bolaning o‘zi bajarib ko‘rishi, o‘zi misoldan qoidani chiqarishi kerak. Darslik shunday asosda tuzilishi lozim. Darsliklardagi bunday kamchiliklar faqat boshlang‘ich sinf darsliklari bilan cheklanib qolmaydi, ular yuqori sinf darsliklarida ham talaygina topiladi.

Yosh avlodni zamonaviy ilm-fan ma'lumotlari bilan qurollantirib borishdek mas'uliyatli ishga panja ortidan qarash yaramaydi. Zero har qanday amaliy faoliyat asosida kuchli nazariy bilim yotadi. Nazariy bilimi yetarli bo'lmagan, so'nggi fan yangiliklari bilan qurollanmagan o'quvchidan kelgusida yetuk kadr bo'lishini kutish yerga urug' sepmasdan turib hosil kutish bilan barobar.

Shu kabi omillarni hisobga olgan holda boshlang'ich sinf darsliklarining yangi, mukammal avlodini yaratishni bugungi ta'lim tizimimizda turgan eng dolzarb masala, deb belgilash maqsadga muvofiqdir. Zero, bugungi kunda arzimas bo'lib tuyulgan muammo, ertangi kunimizda ulkan muammolar uchun tamal toshi bo'lib xizmat qilishi mumkinligini hech birimiz unutmasligimiz lozim.

### **3.2. Muqobil darsliklar yaratish – davr talabi**

Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim sohasida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar "Ta'limga e'tibor – kelajakka e'tibor" ekanligini chuqur anglagan har qanday inson qalbini bir olam shodlikka to'ldirishi shubhasiz! So'zimiz isboti sifatida biz kabi yoshlarning ilm-fan cho'qqisini egallashi uchun yaratilgan sharoitlar, chet eldagi tengdoshlarimiz qatori bizda ham innovatsion g'oyalar asosida eng so'nggi zamonaviy texnologiya yutuqlaridan foydalangan holda ta'lim olish imkoniyati paydo bo'lgani haqida g'urur bilan gapirishimiz mumkin.

Ayniqsa, biz kabi yoshlar va bo'lg'usi pedagoglar uchun o'quv-metodik adabiyotlar borasida bir necha yillardan beri o'ylantirib kelayotgan muammolarga mutassaddilar tomonidan e'tibor qaratilib, uning yechimiga doir bir qator hukumat qarorlari qabul qilingani va bu borada izlanishlar olib borilayotgani quvonarli hol, albatta. Tan olish kerakki, so'nggi yillarda ta'lim sohasida islohot o'tkazilishga eng ehtiyojmand soha bu – ta'lim muassasalarini sifatli o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash sohasi edi. Bunday deyishimizga yetarlicha sabablarimiz bor, albatta. Chunki, ijtimoiy tarmoqlarda ham O'zbekiston ta'lim tizimidagi muammolar haqida gap ketganda har kim tomonidan eng ko'p tanqid qilinadigan masala ham aynan shu bo'lgan. Darsliklarning DTS talablari asosida yozilmayotgani, ularda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari hisobga olinmayotgani, darsliklarda bir-birini inkor qiladigan ma'lumotlarning berilishi, darslik yozishda ba'zi ilmiy va imloviy xatolarga yo'l qo'yilayotgani (ayniqsa bu xatolarni ta'lim oluvchining o'zi ham anglab turgani achinarli hol, albatta), darsliklarda nazariya va amaliyot ko'prigi qo'pol ravishda buzib tashlangani, o'zaro bir sinf darsligining ikkinchi bir sinf darsligi bilan izchillik, tizimlilik asosida bog'lanmagani va shu kabi sanash uchun hatto barmoqlarimiz yetmaydigan muammolar ushbu sohaning shunday tanqidlar ostida qolib ketishiga sabab bo'ldi.

Sifatli darslik bu – sifatli ta’lim garovidir. Ushbu sohada faoliyat yuritayotgan tajribali o’qituvchilarning aytishicha, ular darslikning qayta nashr qilinishini har doim intizorlik bilan kutisharkan. Balki ular qayta nashrlardan ushbu kamchiliklardan xoli bo’lgan mukammal darslik kutishar... Lekin qayta nashr har doim ham ular kutgan natijani beryaptimi?!

Farzandlarimizning sifatli ta’lim olishlari, fanni chuqurroq o’rganishlari o’qituvchilarimizning esa o’z o’quvchilariga o’sha fanni yaxshiroq o’rgatishlari uchun eng yaqin ko’makchi bo’la oladigan darsliklarning yangi avlodini yaratib berishdan ham boshqa muhim vazifamiz bormi?! Yo’q, albatta!

Rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimini o’rganganimizda, ularning rivojlanishida rostdan ham ta’lim muassasalarida foydalanilayotgan o’quv adabiyotlarining o’rni borligiga guvoh bo’lamiz. Bu jihatdan qaraganda, ularning darsliklari havas qilsa arzigulik. Bizning ham farzandlarimiz shunday darsliklardan foydalanib ta’lim olishga haqli! Bizning ham mamlakatimiz shunday darsliklar tufayli rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishga haqli! Lekin bu degani biz mamlakatimiz kelajagi uchun farzandlarimizni chet elning o’sha sifatli darsliklari bilan ta’minlasak, darslik muammosi o’z yechimini topadi, degani emas! Darsliklarda millat mafkurasi aks etishini, darslik asosida o’quvchilarga nafaqat fan, balki vatanga bo’lgan muhabbat, milliy va madaniy an’analar, faqat o’zimizgagina xos bo’lgan mentalitet ham singdirilishini hisobga oladigan bo’lsak, biz chet el darsliklaridan to’g’ridan to’g’ri foydalana olmasligimiz aniq. Lekin biz ularning o’zimizga moslashtirsa bo’ladigan tajribalaridan unumli foydalanishimiz mumkin.

Bu tajribalardan foydalanish uchun, yoki darslik yaratish borasida boshqa samarali deb hisoblangan usullarni amalda sinab ko’rish uchun bizga “bir qancha sinov maydonlari” kerak. Ya’ni demoqchimanki, bunga O’zbekistonda har bir fan uchun yagona va majburiy bo’lgan darsliklar ustida tajriba olib borish bilan erishib bo’lmaydi. Agar shunday qilmoqchi bo’lsak, bir tajribani sinab ko’rish uchun bu darslikni har yili qayta-qayta nashr qilishimiz va bu tajribaning

natijasini yillab kutishimiz talab etiladi. Darsliklarning kunda o'zgarishi esa o'quvchilar bilimining sezilarli darajada pastlashishiga olib keladi. Biz bu ishda shunday bir taktika qo'llashimiz kerakki, natijada o'quvchilar bir vaqtning o'zida turli xil o'quv adabiyotlardan foydalanish va o'zlari uchun muqobil bo'lganini tanlab olish imkoniyatiga ega bo'lsin.

Shu kabi omillarni hisobga olgan holda aytishimiz mumkinki, sobiq ittifoq davrida o'rnatilgan "Butun Respublikada yagona darslik" shioridan voz kechib, darslik yaratish tizimini erkinlashtirish va umumta'lim maktablari uchun tavsiya qilinadigan muqobil darsliklar sonini ko'paytirish vaqti keldi. Agar mualliflarga erkinlik berilsa va sog'lom raqobat qilishlari uchun sharoit yaratilsa, Xalq ta'limi vazirligi tomonidan muqobil darsliklarga qo'yilgan talablar asosida yaratilgan sifatli darsliklar soni tez orada aql bovar qilmas darajada ko'payib ketadi. Bu nima degani? Bu birinchidan, raqobat bor joyda o'sish bo'ladi degani. Bozor iqtisodiyoti sharoitidan bizga ma'lumki, muayyan sohada faoliyat yurituvchi yoki bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar soni qancha ko'p bo'lsa, bu o'sha sohaning boshqa sohalarga nisbatan jadalroq rivojlanishiga olib keladi. Chunki har bir ishlab chiqaruvchi bozor iqtisodiyoti davrida yashab qolish uchun harakat qiladi, yangilik yaratadi, o'z mahsulotini raqobatbardosh qilish borasida izlanishlar olib boradi. Agar darslik yaratuvchi mualliflar orasida ham shunday kurash ketsa, tasavvur qila olasizmi, bizda qanday darsliklar yaratilishi mumkin?!

Maqsadga erishish yo'llari ko'p bo'lganidek, ilm egallash va ta'lim berish usullari ham bisyor. Oddiygina shu haqiqatning o'zi ham butun bir mamlakat faqat bitta kitobdan foydalanib ilm o'rganishi yuqori darajadagi samaradorlikka yetaklamasligini aytib turibdi. Ta'lim tizimida muqobil darsliklarning bo'lishi bu har bir o'qituvchining o'z o'qitish usulidan, o'quvchilarining qiziqishlari va imkoniyatlaridan kelib chiqib, darslik tanlay olishi va shu tufayli ta'lim sifatini yanada oshirishi mumkinligini bildiradi.

Ana shu masalalarga amaliy yechim sifatida Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 5-apreldagi 281-son qaroriga muvofiq "Umumta'lim maktablari uchun

muqobil darsliklarni yaratish va ulardan foydalanish to'g'risida" NIZOM<sup>36</sup> tasdiqlandi. Ushbu Nizom xalq ta'limi tizimida umumta'lim maktablari uchun muqobil darsliklar hamda o'quv-metodik qo'llanmalarni yaratish, ularni topshirish va qabul qilish, ekspertizadan va tajriba-sinovdan o'tkazish, tasdiqlash va amaliyotga joriy etish tartibini belgilaydi.

O'ylaymizki, agar bu yaratilgan mexanizm yaxshi ishlab, o'z maqsadiga erisha olsa, yaqin yillarda hech qaysi davlatnikidan qolishmaydigan, o'quvchilarimizning qo'ldan qo'ymay o'qiydigan sevimli kitobiga aylanadigan, fidoyi o'qituvchilarimizning mashaqqatli faoliyatlarini yengillashtirishga xizmat qiladigan va eng asosiysi mamlakatimizni faqat taraqqiyot sari yetaklaydigan o'zimizning darsliklarimizga ega bo'lamiz.

Lekin masalaning yana bir boshqa tomoni bor. Ushbu loyiha yuzasidan tasdiqlangan qarorni sinchkovlik bilan o'rganar ekanmiz, «muqobil» darsliklar kelajagi bir qator sabablarga ko'ra unchalik ham porloq emasligi ko'zga tashlanadi.

Masalan, darsliklar sohasida yillar davomida monopoliyalar hukm surgan bizning sharoitda o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarga ixtisoslashgan kuchli noshirlar hozircha shakllanmagan. Shunday ekan, «muqobil» darsliklarni ishlab chiqishga kattagina sarmoya kiritishga tayyor nashriyotlarni topish qiyin. Darslik yaratishdan tortib uni amaliyotga joriy qilinishigacha bo'lgan jarayonning butun harajatlari darslik yaratayotgan mualliflargagina yuklatilganini hisobga olsak, bu mulohazani osongina anglab olishimiz mumkin. Bu masalaning iqtisodiy tomoni.

Masalaning yana bir muhim tomoni borki, bu ayrim omillarga ko'ra, "muqobil" darsliklarni baholash, tasdiqdan o'tkazish va ularning "asosiy darsliklar" bilan sog'lom raqobat qila olishida adolat mezonlarining buzilishi mumkinligi bilan baholanadi.

---

<sup>36</sup> Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 5-apreldagi 281-son qaroriga muvofiq "Umumta'lim maktablari uchun muqobil darsliklarni yaratish va ulardan foydalanish to'g'risida" NIZOM

Bundan kelib chiqadiki, bunday sharoitda darsliklar va o'quv-metodik adabiyotlarni ishlab chiqish va nashr qilish bo'yicha butun boshli tizimni yurita oladigan Cambridge University Press, Rossiyaning «Prosveeniye» yoki «Drofa», Qozog'istonning «Almaty Kitap» kabi haqiqatan ham, kuchli bozor ishtirokchilarining paydo bo'lishini kutish qiyin.

Mazkur loyiha hali amalga oshirilmasdan bir qator bahs-munozaralarga sabab bo'lgani bu achinarli hol. Lekin ushbu o'rinli tanqidlar kelgusida bu nuqsonlar bartaraf etilmasligidan kelib chiqadigan muammolarni oldini olishga xizmat qilayotgani hammamizni birdek quvontiradi.

Ushbu hujjatda mavjud kamchiliklar yuzasidan berilgan takliflar asosini noshirlik faoliyatini erkinlashtirish, mualliflar va noshirlarning bir-birini erkin tanlovini kafolatlash va darslik yaratishga qo'yilgan talablar qatoriga darslikni kreativ va innovatsion g'oyalar asosida tamoman yangicha metodlardan foydalanib yaratish bandini qo'shib qo'yish kabi fikrlar egallagan.

Dunyoda hech narsa mukammal bo'lmaydi, u faqat mukammallikka intiladi xolos. Muhimi, intilish va izlanishdan to'xtab qolmaslik!

### **3.3. O‘zbekistonda raqamli maktab darsliklarining istiqbollari**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘grisida” 2020-yil 2-martdagi PF-5953-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni doirasida Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda Yoshlar ta’limi va ayollar bandligi bo‘yicha “Besh tashabbus” loyihasi doirasida 2020-yil 1-sentyabrdan boshlab alohida umumta’lim muassasalarida bolalarni maktab fanlariga elektron o‘qitish bo‘yicha, shu jumladan, elektron sinf jurnali, o‘quvchilar kundaliklarini raqamlashtirish va elektron materiallar kutubxonasini (darsliklar, video darslar, virtual laboratoriyalar va boshqalar) o‘z ichiga olgan tajriba tariqasida axborot tizimlarini qog‘oz hujjatlarni bekor qilgan holda joriy etish vazifasi yuklatilgan.

Ta’limni munosib raqamli manbalar bilan boyitish maqsadida uchinchi tashabbus doirasida videodarsliklar ishlab chiqildi. Yoshlarni masofadan turib AKT yo‘nalishida ta’lim olishlari uchun 80 ta (robototexnika, dasturlash asoslari, kompyuter grafikasi va mobil ilovalar yaratish bo‘yicha) onlayn video darsliklar ishlab chiqildi.

Ta’lim sifatini oshirish va rivojlantirish uchun texnologiyalardan samarali foydalanish lozim. Bilimli avlod, professional kadrlar bu jamiyatning keng miqyosda rivojlanishi garovidir.

Dunyoning eng taraqqiy etgan ta’lim tizimlariga ega bo‘lgan Janubiy Koreya va AQSH biz aytayotgan raqamli ta’lim tizimiga allaqachon o‘tib bo‘lgan.

Xususan, Janubiy Koreya ushbu tizimga o'tish uchun "Smart Ta'lim" strategiyasini ishlab chiqqan bo'lib, bu ta'lim tizimi an'anaviy darslik kitoblaridan raqamli darsliklarga o'tish o'quvchi-talabalarga "og'ir va qappaygan sumkalarini orqada qoldirib, sinf xonasidan tashqaridagi dunyoni kashf etish imkonini beradi", deydi Janubiy Koreyaning Ta'lim, fan va texnologiyalar vaziri Ju-Xo Li.

Yangi tizimning yana bir qulayligi shundaki, bu tizim respublikamizning mutaxassis o'qituvchilar yetishmaydigan qishloq hududlarida o'quvchi va talabalar uchun fanlarni tanlash va uydan turib ta'lim olish imkoniyatini ham beradi.

Janubiy Koreya o'qish darajasi bo'yicha dunyoda ikkinchi, matematika sohasida to'rt va tabiiy fanlar bo'yicha beshinchi o'rinda turadi.

1945-yilda mamlakat aholisining 78 foizi savodsiz bo'lgan bo'lsa, hozirda Janubiy Koreya barcha Yevropa davlatlari va AQSHdan o'zib ketgan. Bu albatta, Koreyaning ta'lim tizimi bo'yicha to'g'ri yo'nalish tanlaganidan darak beradi.

Ushbu texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy qilish boshqa sohalarga joriy qilishdan ham muhimroq ekanligini yuqoridagi misoldan ham ko'rishimiz mumkin. Kelajak avlodni qancha erta AT muhitiga olib kirsak, ular bu muhitga shunchalik tez moslashadi. Chunki, mutaxassislarning aytishicha, yaqin yillarda dunyo yangi axborot texnologiyalarini ishlata oladigan va olmaydiganlar orasida "raqamli bo'linish"ning yuzaga kelishiga guvoh bo'ladi.

Ma'lumki, har jabhada rivojlanib kelayotgan jonajon O'zbekistonimizda ham boshlang'ich ta'lim fanlarining o'qitilishida umumiy o'rta ta'lim maktablarini moddiy texnika bazasini yangilash, shuningdek, umumiy o'rta ta'lim o'quv jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalari va "Elektron ta'lim" tadbiri 2020-2025-yillarda innovatsion rivojlanishning kelajak trayektoriyasi va texnologik yo'l xaritasini ishlab chiqish ishlari amalga oshirilmoqda. Bu esa xalqimizning xususan, ilmga chanqoq talaba yoshlarning turmush darajasini

yaxshilash va yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishi uchun ustuvor yo‘nalish bo‘lib xizmat qiladi.

Raqamli darsliklarni qay ko‘rinishda bo‘lishini loyihalashda avval ko‘p jihatlari o‘rganiladi, ya’ni uni o‘qitish bo‘yicha tadqiqotlar olib boriladi. Natijada yaratilayotgan o‘quv darsliklar bilim olish jarayonida qiziqarli, yengil, esda qolarli va zararsiz bo‘lishiga yo‘naltiriladi. Birgina sahifada bir vaqtning o‘zida ham matnli, ham audiotovushli tushuntirish, ham videorolik, ham 3D-animatsiya bo‘lishi mumkin. O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra bunday darsliklar virtual, multiformatli va interaktiv bo‘lganligi sababli ishtirokchilarning 80 foizi axborotni eslab qola oladi.

“Raqamli maktab”, “Elektron ta’lim” va “Raqamli darslik” loyihalari xususida gap borar ekan, avvalo ular yaratayotgan imkoniyatlar ulardan foydalanishda kelib chiqishi mumkin bo‘lgan muammolarga alohida to‘xtalib o‘tish zarur. Zero, ta’lim tizimi tavakkalchilik sinab ko‘riladigan maydon emas.

O‘zbekiston sharoitida ushbu loyihalarni amalga oshirish ta’lim tizimi uchun quyidagi qulaylik va imkoniyatlarni yaratadi:

1. Davlat uchun: budget mablag‘larini nashr harajatlaridan iqtisod qilish imkoni.

2. Elektronika mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilarga bu – katta buyurtmadir.

Dasturchilar uchun: yangi dasturlar yaratish va mahsulotlarini takomillashtirish, bu orqali AT sohasi taraqqiyotini kafolatlash imkoniyati.

3. O‘quv jarayoni uchun: qiziqarlilik, samaralilik, osonlik.

4. O‘quvchilar uchun: har yerda va har qachon foydalanish mumkin bo‘lgan, oson o‘zlashtiriluvchi va qiziqarli ta’lim.

5. O‘qituvchilar uchun: ortiqcha qog‘ozbozliklardan holi bo‘lgan, ta’lim sifatini tushirmagan holda, ish faoliyatida yengillik.

Shu bilan birgalikda, tizimga o‘tish bir qator maxsus sharoitlarni talab qiladi:

1. Ta'lim muassasalari va ta'lim ishtirokchilarida ushbu tizimdan foydalanish uchun kerakli bo'lgan moddiy texnik bazaning mavjudligi.

2. Tizimga o'tish uchun, sohada faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar va ota-onalarning AKT va ushbu elektron tizimdan foydalanishga oid ko'nikmalarning mavjudligi, yoki zarur hollarda ular uchun ushbu tizimdan foydalanish borasidagi kurslar va yo'riqnomalarning ishlab chiqilishi.

3. Jarayon ishtirokchilarining axborot xavfsizligi va kuchli g'oyaviy immunitetga egaligi.

Elektron darslik "rasmiy va norasmiy muhit, institutsional va mustaqil o'rganish hamda an'anaviy ta'lim va iqtisodiy tashkilotlar o'rtasidagi chegaralarni buzishga qodir"<sup>37</sup>. Elektron didaktik vositalar zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma'lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangitdan saqlash, bilimlarni interfaol usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniga ega manba hisoblanadi. Elektron didaktik vositalar o'quvchilarning tasavvurini kengaytirishga, dastlabki bilimlarini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim.

Xalqaro tajribalarning ko'rsatishicha, kommunikatsion axborot-ta'lim muhitining amaliyotga joriy etilishi ijobiy pedagogik natijaga olib keladi. Turli shaharlar, mintaqalar va davlatlar ta'lim oluvchilarining tarmoqdagi birgalikdagi o'quv faoliyatini tashkil etishning asosiy shakli elektron, axborot-didaktik vositalar hisoblanadi.

Shuning uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda o'qitish va tarbiyalashga bo'lgan yondashuvlar ko'pchilik ilmiy tadqiqotlar va davlat dasturlarida asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Axborot texnologiyalarini uzluksiz pedagogik ta'lim tizimiga tatbiq qilish yildan yilga keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Axborotlashtirish jarayonida ilmiy-pedagogik xodimlar tomonidan ko'p sonli axborot resurslari ishlab chiqilmoqda. Lekin bu ishlar hali talab darajasida emas.

---

<sup>37</sup> Jesús Rodríguez Rodríguez, Tânia Braga Garcia, Eric Bruillard. IARTEM (International Association for Research on Textbooks and Educational Media) 1991-2016. 25 years developing textbook and educational media research. France – 2019. 387-410.

Axborot-ta'lim muhitini yaratish ta'limda axborotlashtirish jarayonini rivojlantirishning obyektiv natijasi bo'lib hisoblanadi. Ta'limni axborotlashtirishning maqsadi – axborot-kommunikatsion texnologiyalarni jalb qilish va qo'llash hisobiga intellektual faoliyatni global jadallashtirishdan iborat<sup>38</sup>.

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, mazkur muammolarni hal qilish doirasida zamonaviy darsliklar, o'quv-metodik majmualar va elektron didaktik vositalarni bir tizimga birlashtirishning pedagogik, metodik va texnologik asoslarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan tadqiqotlar o'tkazish lozim.

---

<sup>38</sup> Inoyatov U. Zamonaviy darsliklar, o'quv-metodik majmualar, elektron didaktik vositalarni ishlab chiqishga innovatsion yondashuv dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2018. -№3. B.12-13.

### III BOB YUZASIDAN XULOSALAR

Dunyo yaralibdiki, inson qaysi yo‘nalishda nimaga erishgan, qanday yutuqlarni qo‘lga kiritgan bo‘lsa, avvalo, buning zamirida ilmga bo‘lgan ishtiyoq mujassam. Zamonaviy dunyoda taraqqiyotni belgilovchi omillarning eng asosiysi, hech shubhasiz, ilmdir. Ta’bir joiz bo‘lsa, ummonlar qa’riga sho‘ng‘ish, koinotni zabt etish ham aynan ilmning mahsuli ekanini bugun hech kim inkor eta olmaydi.

Inson ayni ushbu ilmlarni ta’lim muassasalarida oladi. Bunda ularning eng yaqin yordamchisi darsliklar va o‘quv qo‘llanmalardir. Shu bois ta’lim muassasalarining darslik va o‘quv-metodik qo‘llanmalar bilan ta’minlanishi o‘qitish sifati va samaradorligiga ta’sir etuvchi muhim omillardan biri bo‘lib hisoblanadi<sup>39</sup>.

O‘zbekiston sharoitida xorij tajribasi hisoblangan “Raqamli darslik” va “Muqobil darslik” loyihalarining amaliyotga joriy qilinishi, mamlakatimiz ta’lim tizimi taraqqiyotida yangi va muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Bu vaziyatda biz pedagoglardan talab esa, ushbu loyihalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga ko‘mak berish.

Mazkur tizimlar ishlab ketishi uchun bu sohada hali yetarlicha muammo va kamchiliklarimiz bor, albatta. Jumladan, moddiy-texnik baza, yetuk kadrlar masalasi, odamlarning yangiliklarni qabul qilishga tayyorligi, hukumatning esa bu sohani biroz erkinlashtirishga yo‘l berishi omillarini sanab o‘tishimiz mumkin. Yana shuni ham aytish kerakki, bu muammolarni bizga chetdan birov kelib hal qilib bermaydi. Demak, bunga yechimni o‘zimiz topishimiz kerak.

Darsliklar islohotga muhtoj. Biz ertamiz uchun, O‘zbekiston kelajagi uchun bu islohotlarni bugun boshlashimiz shart!

---

<sup>39</sup> Mukammallik, yutuqlar qamrovi – darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarining asosiy shartidir // Xalq ta’limi. – Toshkent, 2018. – №3. – B.4.

## UMUMIY XULOSALAR

Qurayotgan imoratimizning bizga uzoq yillar davomida xizmat qilishi uchun uning poydevori mustahkamligiga alohida e'tibor qaratganimizdek, jamiyatimiz taraqqiyoti uchun ta'lim va tarbiyaning asosiy bo'g'ini bo'lgan boshlang'ich ta'limning ahamiyatini ham shu qadar chuqur his qilmog'imiz darkor!

Boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirish omillari haqida gap ketganda, o'z kasbining ustasi bo'lgan yetuk kadrlar bilan bir qatorda o'qituvchining ta'lim berishi, o'quvchining esa o'quv materialini tez va to'liq o'zlashtirishiga yordam beruvchi o'qitish vositasi – darsliklarga ham yetarlicha ehtiyojimiz borligi hech kimga sir emas! Bugungi kun talablariga to'liq javob bera oladigan va farzandlarimizning sifatli ta'lim olishlari uchun ishonchli manba bo'lib xizmat qiladigan darsliklar yaratish muammosi shu sohada faoliyat yuritayotgan har bir fidoyi, jonkuyar o'qituvchilarimizning kunda yuz bor o'ziga beradigan, eng ko'p o'ylantiradigan savoli bo'lishi tabiiy.

“Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi”da milliy istiqlol g'oyasiga sodiq, yetarlicha intellektual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan shaxslarni tarbiyalash hamda raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash masalasi o'quv adabiyotlarining yangi avlodini ham yaratishni talab qilayotgani alohida ta'kidlab o'tilgan.

Darsliklarning yangi avlodini yaratish uchun darslik yaratishning doimiy sinalgan usullaridan foydalangan ma'qul.

Birinchisi – an'anaviy usul. Bunda o'tmish tajribasida uchragan yutuq va kamchiliklardan to'g'ri xulosa chiqargan holda ish ko'rish.

Ikkinchisi – yangilikni o'zimizda yaratish. Bu boshqa usullarga qaraganda biroz tavakkalchilikka asoslangan bo'lib, natijalarni oldindan bilib bo'lmaydi. Bu jihatdan qaraganda bu biroz “xavfli”.

Uchinchi usul esa rivojlangan davlatlarning ushbu sohadagi tajribalaridan umumli foydalangan holda ish olib borish. Menimcha, bu har jihatdan maqbul usul bo‘lib, bunda xatolikka yo‘l qo‘yish ehtimolligi ancha kamayadi.

Rivojlangan mamlakatlarning o‘quv darsliklari hamda ularning muvaffaqiyatini ta‘minlagan shu va boshqa omillarni o‘rganar ekanmiz, bu tajribalarni o‘zimizning sharoitga moslashtirish va darslik yaratish amaliyotida keng foydalanish orqali biz ham badiiy va ilmiy jihatdan yuksak qiymatga ega, o‘lmas darsliklar yaratishimiz mumkinligiga ishonchimiz komil bo‘lib bormoqda. Darsliklar, ayniqsa boshlang‘ich sinf darsliklari har qaysi soha vakili ilk bor qo‘liga oladigan dastlabki o‘quv adabiyoti bo‘lishini anglagan holda, uni har jihatdan mukammal bo‘lishi uchun kerak bo‘lsa, o‘tmish va yoki chet el tajribasi bo‘lsin, chuqur o‘rganib, uning yutuq va kamchiliklarini hisobga olgan holda ish ko‘rish maqsadga muvofiqdir. Axir darslik kunda yangilanadigan va kam auditoriyaga ega nashr emas!

Ushbu izlanish natijalaridan kelib chiqqan holda, yangi avlod darsliklari yaratishda inobatga olinishi kerak bo‘lgan ba‘zi jihatlarni tavsiya sifatida berib o‘tish mumkin:

- darsliklarda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari maksimal darajada hisobga olinishini ta‘minlash;

- darsliklarda hech narsa qolipga solinmasligi va o‘quvchidan darslik muallifi yoki o‘qituvchining fikrlarini quruq takrorlash talab qilinmasligiga alohida e‘tibor berish;

- darsliklarda beriladigan materiallarni sifat va miqdor jihatdan qaytadan ko‘rib chiqish;

- darsliklarni faqat ma‘lumot berish, xabardor qilish uchungina emas, o‘quvchilarni fikrlatish vazifasini bajarishni maqsad qilgan holda yaratish;

- darsliklarimizda uchraydigan ba‘zi “U kim, bu nima?” turkumidagi savollar o‘rniga o‘quvchilarimizni o‘ylashga, izlanishga undaydigan savol va topshiriqlarni ko‘proq berish;

- darsliklarni bolani ta'lim jarayonining obykti bo'lish maqomidan darsning o'qituvchi bilan teng huquqli subyekti, ijrochisi darajasiga ko'tarilishi kerakligi ko'zda tutilib yaratish;

- darslik yaratishda uning grafikasiga alohida e'tibor berish;

- darslikda mazkur fanning boshqa fanlar bilan o'zaro mustahkam aloqasini ta'minlay oladigan integratsion materiallar sonini oshirish;

- darslik yaratishga ijodiy yondashish va boshqalar.

Biz farzandlarimizni jahon hamjamiyatida o'z aql-u zakovati, kuch-qudrati va yuksak darajadagi insoniy fazilatlari bilan peshqadamlar safida bo'lishini xohlaymiz. Buning uchun esa biz ularni chet eldagi tengdoshlari bilan bimalol raqobatlasha oladigan yetuk kadrlar qilib tarbiyalashimiz kerakligini bilamiz, shu bilan birga ayni vaqtda, bu maqsadga faqat o'z qobig'imizga o'ralib, tor doirada fikr yuritish bilan erishib bo'lmasligini ham yaxshi anglab turibmiz. Shunday ekan, biz ta'lim tizimimizni qaytadan ko'rib chiqishimiz, unda zaruriy islohotlarni amalga oshirishimiz, ta'limni yangi innovatsion g'oyalar asosida tashkillashimiz va eng asosiysi, bu yo'nalishda ish olib borish uchun rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi tajribalaridan, ular erishgan yutuqlardan foydalanishimiz kerak. Asl muvaffaqiyat kaliti ham aynan shunda, ya'ni, jahon tajribasi va eng so'nggi innovatsion texnologiyalarni o'rganib, o'zimizning mahalliy sharoitga moslashtira olishda!

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

### I

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-martdagi “Noshirlik va matbaa mahsulotlarini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida” 4640-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999- yil 16-avgustdagi “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 390-sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 15-martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-sonli qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-son qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili” haqidagi Qonuni/ Xalq so‘zi. 1995- yil, 29- dekabr.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni/ Toshkent: Sharq, 1998. – 48 b.
7. O‘zbekiston Respublikasining 1997- yil 29- avgustdagi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi Qonuni.
8. Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Boshlangich ta’lim. 1-4 sinflar. – Toshkent, 2017. – 250 b.
9. Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6-apreldagi 187-son qarori : O‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalari uchun umumta’lim fanlaridan o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqishga qo‘yiladigan talablar.
10. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 5-apreldagi 281-son qaroriga muvofiq “Umumta’lim maktablari uchun muqobil darsliklarni yaratish va ulardan foydalanish to‘g‘risida” NIZOM.

### II

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 488 b.
3. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 56 b.
4. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 488 b.

5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. /1-jild/ – T.: O‘zbekiston NMIU, 2017. 592 b.

6. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston, – 2017. – 104 b.

7. Mirziyoyev Sh. M. 2017—2021-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. 2017- yil 7- fevral.

8. Mirziyoyev Sh. M. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida 2017- yil 12- yanvar PF.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017- yil 19- sentyabr Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020- yil 24- yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

### III

1. ARNO REINTS, Iartem board member. Member’s word. IARTEM (International Association for Research on Textbooks and Educational Media) 1991-2016. 25years developing textbook and educational media research. France -2019. 56 -410.

2. Birger Fredriksen et al, *Getting Textbooks to Every Child in Sub-Saharan Africa* (World Bank, 2015)

3. Braga Garcia, Tânia Maria. 2014. Criteria used by Teachers in Brazilian Public Elementary Schools in the Process of Textbook Selection. *Orbis Scholae* 8 (2), 9-23

4. Brunswic and Hajjar, *Planning textbook development for primary education in Africa* (1992)

5. Exarhos, Ionnis 2005. Greek primary teachers’ preferences for and characteristics of science textbooks. In: Eric Bruillard, Bente Aamotsbakken, Susanne V. Knudsen & Mike Horsley: *Caught in the Web or Lost in the Textbook?* Caen: IARTEM/STEF/IUFM

6. G‘afforova T. Boshlang‘ich ta‘limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Tafakkur, 2011. – 160 b.

7. G‘afforova T., Nurullayeva Sh., Mirzahakimova Z. O‘qish kitobi. 2-sinf. – Toshkent: Sharq, 2018. – 176 b.

8. G‘afforova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G. O‘qish kitobi: 1-sinf uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2019. – 128 b

9. G‘ofurov A. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari akademik, litsey hamda kasb hunar kolleji o‘quvchilari uchun yaratilgan darsliklarga qo‘yilgan talablar va muammolar

10. Hasanboyev J., To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: Fan va texnologiya. 2009. – 672 b.
11. Inoyatov U. Zamonaviy darsliklar, o'quv-metodik majmualar, elektron didaktik vositalarni ishlab chiqishga innovatsion yondashuv dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2018. -№3. B.12-13.
12. Jesús Rodríguez Rodríguez, Tânia Braga Garcia, Eric Bruillard. IARTEM (International Association for Research on Textbooks and Educational Media) 1991-2016. 25 years developing textbook and educational media research. France -2019. -410.
13. Matchonov S., Shojalilov A. va boshq. O'qish kitobi. 4-sinf uchun darslik. – Toshkent: Yangiyo'l poligraph service, 2017. – 216 b.
14. Mavlonova R.A. va b. Umumiy pedagogika. – T.: Fan va texnologiya, 2018, 528 bet.6.
15. Mukammallik, yutuqlar qamrovi – darsliklar va o'quv qo'llanmalarining asosiy shartidir // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2018. – №3. B.4.
16. O'zbek tilining imlo lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 288 b.
17. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'ME, 2006-2008. – 5 tomli.
18. *Peter Menck Looking Into Classrooms: Papers on Didactics.* 2010-y.
19. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009. – 352 b.
20. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. 1-tom. – Toshkent: Universitet, 2000. – 600 b.
21. Sayidahmedov N. Noan'anaviy dars. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003. – 98 b.
22. Sikorova, Z. 2002. Evaluating Textbooks as Teacher's Activity. In Mikk, J., Meisalo, V., Kukemelk, H., Horsley, M. *Learning and Educational Media* Tartu: University of Tartu, 84-92.
23. Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O'qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 224 b.
24. UNESCO 2016. *Every Child Should Have A Textbook Policy Paper* 23. Global Education Monitoring Report. Paris, France.
25. XXIIInd international conference on public education. Geneva -1959.
26. Yadgarov Q.M, Xidirov O. "Dts asosida maktab darsliklari bilan ishlash" fanidan ma'ruza matni. –Jizzax, 2015. – 124 b.
27. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.
28. Ziyodova T. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish/ Toshkent: O'qituvchi, 2001. – 80 b.
29. Климанова Л. Ф., Горецкий В. Г., Голованова М. В. и др. Литературное чтение. 1 класс. В 2 ч. Ч. 1. – Москва: Просвещение, 2012. – 80 с.

30. Климанова Л. Ф., Горецкий В. Г., Голованова М. В. и др. Литературное чтение. 1 класс. В 2 ч. Ч. 2. – Москва: Просвещение, 2012. – 80 с.

31. Отахонова С. Дарсликлар ҳақида // “Маърифат” газетаси. 2004 йил. 9 июн, 46-сон.

#### IV

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
3. [tdpu-INTRANET.Ped](#)
4. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
6. [www.kspi.uz](http://www.kspi.uz)
7. <https://www.zarnewsuz.com>.
8. <https://lex.uz/docs/373342>
9. <https://lex.uz/docs/4273357>

## ILOVALAR



*1-rasm. 1-sinf darsliklari*



*2-rasm. Mashq daftari*



3-rasm. O'qituvchi uchun metodik qo'llanma

1-jadval. O'qish fanini mavzuiy rejalashtirish

№	Bo'lim nomi	Jami soatlar taqsimoti		
		Jami	Nazorat	Tahlil
1	I bo'lim. Biz – vatanning ertasi	8	-	-
2	II bo'lim. Mo'jizaviy qish	6	-	-
3	III bo'lim. Biz – buyuklar avlodi	9	1	1
4	IV bo'lim. Ko'klam – yashnaydi olam	8	-	-
5	V bo'lim. Kitob – bizning do'stimiz	6	1	-
6	VI bo'lim. Xalq o'giti – baxt kaliti	13	1	1
7	VII bo'lim. Tinchlik va do'stlik	6	-	-
8	VIII bo'lim. Yoz – o'tadi soz	6	1	-
		62	4	2
	Jami:	68		

2-jadval. Darsliklarning turli nisbatlarda taqsimlanishi

1 ta kitobdan necha kishi foydalanishi	O'quvchilar soni	Kitoblar soni	Kitoblarga ketadigan pul (1 ta kitob narxi 10000 so'm bo'lganda)	Iqtisodiyotga zarar
1 kishi	12000 (12 ming)	12000	12.000.000 (12mln.)	-8 mln.
2 kishi		6000	6.000.000 (6 mln. So'm)	-6mln.
3 kishi		4000	4.000.000 (4 mln so'm)	0

3-jadval. O'zbek va rus darsliklarining darslikda berilgan materiallar miqdori bo'yicha qiyosiy tahlili

№	1-sinf o'qish darsligi <sup>40</sup> dagi bo'limlar nomi	Darslikda berilgan material soni	“Литературное чтение” <sup>41</sup> da bo'limlar nomi (1 класс)	Darslikda berilgan material soni
1	Biz – vatanning ertasi (8)	9	Вводный урок (1ч)	
2	Mo'jizaviy qish (6)	6	Жили – были буквы (7ч)	14
3	Biz – buyuklar avlodi (9)	10	Сказки, загадки, небылицы (7 ч)	20
4	Ko'klam – yashnaydi olam (8)	12	Апрель, апрель! Звенит капель (5 ч)	16
5	Kitob – bizning do'stimiz (6)	7	И в шутку и всерьез (7 ч)	17
6	Xalq o'giti – baxt kaliti (13)	15	Я и мои друзья (7 ч)	19
7	Tinchlik va do'stlik (6)	9	О братьях наших меньших (6 ч)	16
8	Yoz – o'tadi soz (6)	8		
9	Mustaqil o'qish uchun	22		
	(62 soat)	98	(40 ч)	102

<sup>40</sup> G'afforova T., Shodmonov E., Eshurdiyeva G. O'qish kitobi: 1-sinf uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2019. – 128 b.

<sup>41</sup> Климанова Л. Ф., Горечкий В. Г., Голованова М. В. и др. Литературное чтение. 1 класс. В 2 ч. Ч. 1. – Москва: Просвещение, 2012. – 80 с.



4-rasm.. Darslikda adabiyotlar tavsiyasining berilishi

4-jadval. "Литературное чтение" da berilgan savollar tasnifi


№	Savol va topshiriqlar turi	Литературное чтение. Часть 1 <sup>42</sup>	Литературное чтение. Часть 2 <sup>43</sup>	Jami:
1	Daftarda ishlanadigan	11	4	15
2	Juftlikda ishlanadigan	19	12	31
3	Guruhda ishlanadigan	5	2	7
4	Murakkablashtirilgan	8	4	12
5	Yuqoridagi guruhga kirmagan savollar	90	109	199
	Jami:	133	131	264

<sup>42</sup> Климанова Л. Ф., Горецкий В. Г., Голованова М. В. и др. Литературное чтение. 1 класс. В 2 ч. Ч. 1. – Москва: Просвещение, 2012. – 80 с.

<sup>43</sup> Климанова Л. Ф., Горецкий В. Г., Голованова М. В. и др. Литературное чтение. 1 класс. В 2 ч. Ч. 2. – Москва: Просвещение, 2012. – 80 с.


5-jadval. "O'qish kitobi" da berilgan savollar tasnifi

№	Savol va topshiriqlar turi	1-sinf O'qish kitobi <sup>44</sup>
1	Savollar	117
2	So'zlash yoki daftarga yozish bo'yicha topshiriqlar	24
	Jami:	141



5-rasm. "Литературное чтение" da illustratsiyalar

<sup>44</sup> G'afforova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G. O'qish kitobi: 1-sinf uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2019. – 128 b.



6-rasm. Yaponiya darsliklarida ijodiylik. “Atarashii kogugo”



7-rasm. “Литературное чтение” da “Разноцветные страницы” sahifasi